

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA‘LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

***INNOVATSIYA  
VA  
TARAQQIYOT***

*Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma‘naviy-ma‘rifiy*  
***JURNAL***

**2024-yil 9-son**

**Urganch-2024**

**Bosh muharrir:**

*M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**

*S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

**Mas’ul kotib:**

*U.Bekimmetov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Tahrir hay’ati:**

*Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*S.E.Normamatov – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*G.U.Pardayev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.*

*D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*A.I.Primov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*D.I.Yo‘ldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*S.M.Sariyev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.*

*M.M.Masharipov – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).*

*M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.*

*Ch.A. Sabirova – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent*

*D.A.O‘razboyeva – Psixologiya fanlari doktori, dotsent.*

*I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.*

*D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.*

*O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).*

*S.R.Davletov – Tarix fanlari doktori, professor.*

*O‘I.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.*

*G.Durdiyeva – Arxitektura fanlari doktori, dotsent.*

*Q.Y.Masharipov – Tarix fanlari doktori, dotsent.*

*N.R.Matyakubov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*B.M.Satimov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*M.S.Xajiyeva – Falsafa fanlari doktori, professor.*

*B.I.Abdullayev – Fizika-matematika fanlari doktori, (UrDU rektori).*

*R.Y.Ro‘ziboyev – Tibbiyot fanlari doktori, professor, (TTA UF direktori).*

*A.R.Matnazarov – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent*

*Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).*

*H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).*

*J.R.Yarmetov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.*

*J.S.Iskandarov – Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

*O.Radjabov – Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.*

**ISSN 3030-3206**

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.  
№ 9 (18), Urganch innovatsion universiteti, 2024-yil.

## MUNDARIJA:

### TARIX

<b>A.AROL.</b> Qobul shahrida o‘tkazilgan Beruniyshunoslik konfrensiyasi va uning ahamiyati. ....	4
<b>D.BABOJONOV .</b> Maxtumquli Firog‘iy o‘qigan madrasa. ....	13
<b>U.BEKMUHAMMAD, N.ODILOVA.</b> Ismoil Gaspralining jadidchilik g‘oyalari va uning Turkistonga ta’siri. ....	19
<b>S.MATKARIMOVA.</b> G.P.Snesaryov tadqiqotlarining etnografiya fani rivojiga qo‘shgan hissasi. ....	25
<b>O.Allaberganov.</b> Ijtimoiy ta’minot tizimi va uning huquqiy asoslari. ....	31
<b>S.DAVLETOV.</b> Yangi O‘zbekiston ma’naviy taraqqiyotining poydevori. ..	40

### FILOLOGIYA

<b>S.SAMANDAROVA, U.BEKMUHAMMAD.</b> Maxtumquli she’riyati tarjimasining Buxoro nashri. ....	48
<b>J.JOVLIYEV.</b> “Jaloliddin Manguberdi” dramasi qo‘lyozmalarining matniy-qiyosiy tadqiqi. ....	51
<b>M.RAHIM.</b> Talabalik davridagi shijoat. ....	58

**TARIX****Qobul shahrida o‘tkazilgan Beruniyshunoslik  
konferensiyasi va uning ahamiyati****Azizullah AROL**

**A.Navoiy nomli  
Toshkent davlat O‘zbek  
tili va adabiyoti  
universiteti dotsenti.**

**UO‘K 540.20**

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Beruniyning ilmiy faoliyatiga bag‘ishlab Qobul shahrida o‘tkazilgan ilmiy konferensiya yoritib beriladi. Konferensiyaning o‘tkazilish jarayonlari taxlil etiladi.*

***Аннотация:** В данной статье описывается прошедшая в Кабуле научная конференция, посвященная научной деятельности Беруни. Анализируются процессы конференции.*

***Annotation:** This article describes the scientific conference held in Kabul dedicated to Beruni's scientific activity. The processes of the conference are analyzed.*

***Kalit so‘zlar:** Abu Rayhon Beruniy, anjuman, olim, Xorazm, Afg‘oniston, maqola, qabr, asar.*

***Ключевые слова:** Абу Райхан Беруни, конференция, учёный, Хорезм, Афганистан, статья, могила, работа.*

***Key words:** Abu Rayhan Beruni, conference, scholar, Khorezm, Afghanistan, article, grave, work.*

Afg‘oniston Osiyoning janubiy-g‘arbida, O‘rta Sharqda joylashgan davlat, hududi 655 ming kv.km. Aholisi 35 mln.dan ortiq. Poytaxti - Qobul shahri (aholisi 5 mln.ga yaqin). Davlat tili pushtun va dariy tillari. O‘zbek tili ular zich yashaydigan hududlarda uchinchi rasmiy til sifatida asosiy qonunda e‘tirof etilgan. Afg‘oniston 34 viloyatga bo‘linadi, Abu Rayhon Beruniy qabri G‘azna viloyatida, bu viloyat hududi - 23,378 kv.km. Markazi – G‘azna shahri, aholisi 150 ming atrofida (2015). Beruniy bu yerda yarim asrdan ko‘proq muddat mobaynida yashab ijod etgan, asl xorazmlik, o‘zbekning jahonshumul qomusiy olimi sifatida tan olingan.

Amerikalik taniqli olim Frederik Starr Abu Rayhon Beruniyini “qadimgi dunyo bilan ko‘hna Yevropa o‘rtasidagi davrning buyuk tadqiqotchisi, uning tinimsiz intilishlaridan kelib chiqib, uni eng buyuk kashfiyotchi olim deyishimiz mumkin”, deb ta’kidlaydi. Olinga ko‘ra, Abu Rayhon Beruniyning bir necha yuz yillar davomida dunyo miqyosida muhim ahamiyatga molik bo‘lgan ilmiy g‘oyalari va uning shaxsiyatining bir qancha jihatlaridan saboq olishimiz kerak.


Bir ming ellik bir yil avval Yevropani haddan ortiq zulmat qamrab olgan bir paytda, Yevropadan olisroqda - Osiyo qit‘asining qalbida joylashgan ko‘hna Xorazm diyorida dunyoga kelgan Abu Rayhonning bilim va tafakkur chirog‘i ko‘p o‘tmay olis-olislarini yoritib boshladi.



سمینار بین المللی ابوریحان بیرونی  
د ابوریحان بیرونی نړیوال سمینار  
Abu Rayhan Bironi Xalqaro Seminari  
Abu Rayhan Bironi International Seminar  
کابل- افغانستان | Kabul-Afghanistan  
6-8 September | سنه ۱۵-۱۷

Shunday buyuk allomaning qabri joylashgan Afg‘onistonda so‘nggi yuz yil mobaynida rasmiy darajada atigi ikki marta Beruniyning ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan ilmiy anjuman o‘tkazilgan.

Birinchi bor 1991-yili 18-19 dekabr kunlari Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1025 yilligi munosabati bilan Qobul universitetida ikki kunlik xalqaro simpozium bo‘lib o‘tdi. Unda asosan universitet professor-o‘qituvchilari, ilm-fan arboblari ishtirok etishdi. Simpoziumga taqdim etilgan 23 ta maqola inglizcha tarjimasi bilan “Abu Rayhon Beruniy simpoziumi maqolalari xulosasi” nomi bilan nashr etildi.



*Maqolalar to‘plami, Qobul 1991-yil*

To‘plamning kirish qismida shunday yoziladi:

*“Shunisi quvonarliki, universitetlar, institutlar, tadqiqot markazlarining ustozlari, professor-o‘qituvchilari, olimlar katta qiziqish bilan alloma Abu Rayhon Beruniy xalqaro simpoziumiga yo‘llagan maqolalari va ilmiy-tadqiqiy ishlarida buyuk mutafakkir Beruniy hayoti va ijodiyotining turli jihatlarini qamrab olganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi”.*

To‘plamdan o‘rin olgan birinchi maqola muallifi falsafa fanlari doktori Said Nurulhaq Qovush, “Sharq va Islom dunyosining buyuk faylasufi Abu Rayhon

*Beruniy barcha o'zidan oldingi va zamondoshlari ichida yagona faylasuf donishmand ediki, zamonaviy tahliliy falsafa ruhini uning tafakkurlaridan qidirish mumkin", deb ta'kidlaydi.*

Ayni to'plamda nashr etilgan *"Abu Rayhon Beruniyning jamiyat va inson xususidagi tafakkurlari aksi"* maqola muallifi filologiya fanlari doktori Do'st Muhammad Parvoniy: *"Nafaqat bizning mamlakatimiz balki jahonda ham Abu Rayhon Beruniyning tafakkur va nazariyasi hozirga qadar to'la-to'kis o'rganilmagan, shu bois uni atroflicha mutolaa qilish, tadqiq, tahlil va tekshirish hali ham kunimizning dolzarb mavzularidan bo'lib qolmoqda"*, deb uqtiradi.

Qobul universiteti ijtimoiy fanlar fakulteti o'qituvchisi, ilmiy kengash a'zosi Abdul G'affor Safo konfrensiyaga taqdim etgan *"Al-Beruniy bilan G'aznaviylar o'rtasidagi munosabatlar"* sarlavhali maqolasida Abu Rayhon Beruniy haqida shunday yozadi: *"...Sulton Mahmud G'aznaviy iste'dodli imperator bo'lishi bilan birga madaniyat va san'atni qattiq sevar edi. Xorazmshoh saroyida katta izzat-obro'ga ega Abu Rayhon Beruniy G'aznaga olib boradi. Tarixchilarning yozishicha, erkin fikrli, ochiq so'zli, falsafiy-mantiqiy tushunchali Al-Beruniy bilan, qattiqqo'l, nazariy ilmlarga berilgan Sulton Mahmud o'rtasidagi aloqa birmuncha sovuq bo'lgan. Ammo, shunga qaramay, saroyda Beruniyga nisbatan hech qanday yomon munosabatda bo'linmagan"*.

*"Hozirgi Afg'onistonning ko'hna G'azna diyorida umrining asosiy qismini kechirgan Abu Rayhon Beruniy 990 yil mobaynida birinchi bor tilga olindi va shu bahonada uning hayoti va ijodiyotini o'zida aks ettirgan 103 betdan iborat ilk to'plam yozuv mashinkasida yozib nashr etildi"*.

Oradan chorak asr o'tdi. Bu orada Abu Rayhon Beruniy Afg'onistonda tilga olinmadi. 2018-yil boshida mamlakat Prezidenti *"Buyuk alloma Beruniy yubileyini o'tkazish haqida"*gi qarorni qabul qildi.

Tezda o'n ikki kishilik komissiya a'zolari belgilandi. Kamina Azizullah Arol zimmasiga ilmiy qo'mitaga raislik mas'uliyati yuklandi. Komissiyaning ish joyi *"Axborot va madaniyat vazirligi"* deb belgilandi va unga vazirning o'zi (R.Bovariy) raislik qildi.



فراخوان مقالات علمی برای سیمینار بین المللی  
ابوریحان محمد ابن احمد البیرونی

۱- مهلت برای ارسال عنوان و چکیده (چکیده باید یک پراگراف باشد)- ۳۰ اپریل ۲۰۱۸  
۲- مهلت برای ارسال متن کامل مقاله- ۳۰ جون ۲۰۱۸  
آدرس ایمیل برای ارسال چکیده و مقاله:  
Alberunipapers@arg.gov.af

Komissiya keng targ‘ibot ishlarini olib borib, shahar ko‘chalariga Beruniy rasmlarini o‘rnatildi va beton devorlarga allomaning o‘g‘itlari yozib qo‘yildi.



Komissiya o‘sha yilning 6-8 sentabr kunlari “Abu Rayhon Beruniyning 1045 yillik yubileyini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish faoliyatini boshlash haqida quyidagi ishlarini amalga oshirish zarur deb topdi:

1. Abu Rayhon Beruniy ilmiy merosini chuqur o‘rganish.
2. Alloma hayoti va ijodiyoti xususida ilmiy-tadqiqiy maqolalar yozish va uni to‘plam shaklida nashr qilish.
3. Radio, televideniye, gazeta-jurnallarda keng targ‘ibot ishlarini yo‘lga qo‘yish.
4. Abu Rayhon Beruniy asarlarini imkon qadar tarjima va nashr qilish. Bu ishga mahalliy va xorijiy, ayniqsa o‘zbekistonlik beruniyshunos olimlarni jalb etish.
5. “Bag‘rikenglik madaniyatini mustahkamlash” mavzusida Prezident saroyi hamda “Bobur bog‘i”da uch kun davomida xalqaro ilmiy seminar o‘tkazish.
6. O‘rta Osiyo, yaqin Sharq, Amerika va Yevropa o‘lkalaridan beruniyshunos olimlar va tadqiqotchilarni taklif etish.

Qo‘mita olti oy davomida tinimsiz faoliyat olib bordi va natijada Beruniyga oid 9 nomdagi kitobni seminarga qadar nashrdan chiqarishga ulgurdi. Kitoblar

dariy, pashtu, o‘zbek va ingliz tillarida yozilgan. Ular quyidagilardan iborat: “G‘azna javohiri” va “Koinot nigohidagi alloma” o‘zbek tilida; “Al-Beruniyning ilm-fan rivojidadagi roli” ingliz tilida; “Donishmandlar siymosi”, “G‘azni javohiri” va “Zamondan ustun olim” pushtu tilida, shuningdek “Majmu‘ai maqolot” (“Maqolalar to‘plami”) hamda “Chakiyda” (“Maqolalar qisqartmasi”).



*Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1045 yilligi munosabati bilan nashr etilgan kitoblar*

Afg‘oniston poytaxti Qobul shahrida Abu Rayhon Beruniy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan bu xalqaro ilmiy anjuman o‘zining mazmun va mohiyati, unga taqdim etilgan yuqori saviyali maqolalar, nashr etilgan kitoblar va xorijlik beruniyshunoslarning ishtiroki bilan ajralib turdi.

Anjumanga yuborilgan maqolalar saralanib, o‘ttiz ikkitasi to‘plam shaklida nashr etildi. 495 betdan iborat to‘plamdan o‘rin olgan maqolalardan to‘rttasi o‘zbek, o‘n sakkiztasi fors, oltitasi pushtu va to‘rttasi ingliz tillaridagi maqolalardan iborat.

Tarix fanlari doktori, o‘zbekistonlik beruniyshunos olim Ashraf Ahmedov “Beruniy Geodeziya’si va undagi ba’zi trigonometrik qoidalar” sarlavhali maqolasida Beruniyning “Geodeziya” nomli asari bilan atroflicha tanishtirib, maqola davomida muhim bir masalani quyidagicha bayon etadi: *“Beruniy azimut va shaharlarning geografik koordinatlarini aniqlashning ahamiyati faqat qibla yo‘nalishini izlashdagina emas, balki boshqa dunyoviy ishlarda, kundalik hayotda ham katta ekanligini ko‘rsatadi. “Agar diniy ishlardan dunyoviy ishlarga o‘tsak, - deb yozadi Beruniy, - buning manfaati, biz aytganimizdek, xayr izlab falokat joylarni tashlab ketishni maqsad qilganlarga yo‘l tanlash [imkonini] beradi.”*



To‘plamdan o‘rin olgan boshqa bir maqolaga mana bunday yoziladi: *Boshqa nasabnomalarni qiyosiy o‘rganish va tahlil qilish (Ashina va mo‘g‘ullarning kelib chiqishi haqidagi afsonalar)*”. Maqola muallifi Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti doktoranti Feruza Jumaniyozova Beruniyning bir necha asarida hozirgi Afg‘oniston poytaxti qadimgi Qobulda turklar (turkiylar) hukmronlik qilganliklari tilga olinganini ta’kidlab, - “Shaharlarning uzunlik va kengliklarini jadvallarda ko‘rsatish haqida” deb nomlangan 10-bobida keltirilgan jadvalda “To‘rtinchi iqlimdan joylar” tarkibida Qobul nomi keltiriladi. Unda “Qobul qal’asi qobulliklar podshohlarining qarorgohlaridir. Ular turklar edi, keyin brahmanlar bo‘lgan” degan jumlar uchraydi. Shuningdek, “Mineralogiya”da “...Qobul o‘tmishda islom mamlakatlari uchun Hindiston bilan bo‘lgan chegaraga eng yaqin [maskan] edi, - unda o‘sha zamonlarda, shoh deb atalgan va [kelib chiqishi] turklardan bo‘lgan hukmdorlarning poytaxti joylashgan edi, degan ma’lumot bor”, deb yozadi.

Alloma tavalludining 1045 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro anjuman, Qur’oni karim tilovati hamda mamlakat milliy madhiyasini jonli ravishda ijro etish bilan rasman ochildi. Mamlakatning o‘sha paytdagi rahbari ushbu ilmiy konferensiyaning ochilish nutqida Beruniy astronom, huquqshunos va Markaziy Osiyoning buyuk madaniy va tarixiy shaxslaridan biri bo‘lgani, uning yutuqlari Afg‘oniston, O‘zbekiston va insoniyat faxru g‘ururi ekani xususida so‘z yuritib, “Bundan 50 yil oldin, Bayrutdagi Amerika universitetida talaba bo‘lganimda, Abu Rayhon Beruniy shaxsi haqida birinchi marta professor Kennedidan eshitgan edim. O‘shanda Beruniyning Algebra bo‘yicha to‘plagan yangiliklari va ularni dunyoga tanitish uchun uzoq umr sarflaganligiga ishonch hosil qilgan edim. Hozir men e’tibor qaratmoqchi bo‘lgan narsa shuki, Abu Rayhon Beruniyning biz afg‘onlar uchun ibrat olishga arzigulik nuqtasiga ishora qilmoqchiman. Biz Beruniy qanday mezonlar haqida fikr yuritganini bilishimiz kerak, toki biz o‘tmishimizni, bugunimizni va kelajagimizni ana shu fikrlar nuri ostida birlashtirib, mustahkam aloqa o‘rnatishimiz mumkin. Abu Rayhon Beruniy mintaqamiz sivilizatsiyasining vakili. Beruniy O‘zbekiston, Turkmaniston, Tojikiston, butun Markaziy Osiyo, Hindiston, Pokiston, Eron, Turkiya va mintaqa uchun sharafdir. Men ushbu mintaqaviy sivilizatsiyaning bir qismi ekanligimdan faxrlanaman”, dedi.

Abu Rayhon Beruniy shaxsiyati va faoliyatining turli jihatlarini tadqiq etish va chuqur o‘rganish maqsadida Qobulda tashkil qilingan uch kunlik xalqaro ilmiy anjumanida O‘zbekiston, Hindiston, Eron, AQSh, Germaniya, shuningdek Afg‘onistonning 20 dan ortiq viloyatlaridan olimlar, professor-o‘qituvchilar va

tadqiqotchilar ishtirok etishdi. O‘zbekiston Respublikasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidan Ahmedov Ashraf, Jumaniyazova Feruza, Abdullaev Botir, Quronboeva Umida o‘zlarinig ilmiy ma‘ruzalari bilan ishtirok etishdi.

Konferensiyaning ikkinchi kuni “Bobur bog‘i”ning Haram saroyida o‘tdi. Unda Afg‘oniston, O‘zbekiston, Hindiston, Amerika va Yevropa o‘lkalaridan kelgan bir qator beruniyshunos olimlar, universitet professorlari va tadqiqotchilar Beruniy hayoti va ijodining turli qirralarini keng va chuqur mahokama qilishdi. Jumladan AQSh Indiana universiteti professori antropolog Doktor Nazif Shahroniy Beruniy dunyoqarashi xususida so‘z yuritib, *“Beruniy hech kim va hech narsa haqida yomon gapirmagan. Har kim bilan ularning e‘tiqodi va diniga qarab so‘zlashgan”*, deya fikr bildirdi.

Qobul universiteti professori doktor Aziz Ahmad Panjsheriy *“Mintaqaviy sivilizatsiyaning eng yaxshi namunasi Beruniy timsolida ko‘rishimiz mumkin, u sanskrit tilini o‘rgangandi, odamlar bilan yaqindan uchrashib aloqa o‘rnatdi, insonlar xotirasida ezgu iz qoldirdi, u buyuk sivilizatsiyaning asosiy yaratuvchisi sifatida abadiy shaxs bo‘lib qolgan, shuningdek, u antropologiyaning asoschisi hamdir. Beruniy tajribali olim edi, agar Afg‘oniston yoshlari bugun taraqqiyotga erishmoqchi bo‘lsa, Beruniy kabi ko‘p qirrali fikr yuritishi kerak bo‘ladi”*, deya ta’kidladi.

Anjuman ishtirokchilari Al-Beruniyning shaxsiyati, uning Sharq va G‘arb sivilizatsiyalariga ta’siri haqida ma’ruza qildilar.

Mazkur ilmiy konferensiyaning so‘nggi kunida ishtirokchilar Milliy muzey, Milliy arxiv va Pag‘mon saroyiga ham tashrif buyurishdi.

Ma’lumki butun dunyo o‘zbeklarining umumiy madaniyati ramzi bo‘lgan Abu Rayhon Beruniy (G‘aznada), Alisher Navoiy (Hirotda), Boborahim Mashrab (Taxxorda), Zahiriddin Muhammad Bobur (Qobulda), Mavlono Lutfiy Hiraviy (Hirotda) kabi buyuk siymolar qadamjolari Afg‘oniston hududida joylashgan.

Buyuk mutafakkir, serqirra olim va faylasuf Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 973-yil 4-sentabr kuni hozirgi O‘zbekistonning qadimgi Xorazm diyorida tavallud topgan. O‘z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq asar yaratgan. Umrining katta qismini hozirgi Afg‘oniston hududida o‘tkazgan. U 1048-yil 11-dekabrda ko‘hna G‘azna shahrida vafot etgan va shu yerga dafn etilgan.

Abu Rayhon Beruniy qabri 1973-yili Afg‘oniston Madaniyat vazirligi tomonidan aniqlandi. Hech qanday maqbaraga ega bo‘lmagan bu qabr katta

hududda joylashgan. Ma'lum bo'lishicha, bu hudud Beruniy oromgohining bog'i va hovlisi bo'lgan. Oromgoh atrofidagi hudud 3,500 kvadrat metrni tashkil etadi.

Dunyo davlatlari, ayniqsa YUNESKO mashhur shaxslar qabrlariga alohida e'tibor qaratsa-da, G'azna viloyatidagi katta maydonning bir burchagida yotgan Abu Rayhon Beruniy qabri unutilgan. Bu maydon (o'tmishda bog' bo'lgan) tarixiy G'azni qal'asining shimoli-sharqidagi "Bahlul bog'lari" hududida joylashgan.

O'tgan 20 yilcha vaqt davomida buyuk allomaning qabr-maqbarasini ta'mirlash maqsadida uch-to'rt marta G'aznaga borishgan. "Bobur" xalqaro jamg'armasi raisi Zokirjon Mashrabov: "Maqbaradan hech narsa qolmagan. Faqat qabr, yana bitta qabr, uning ustida maqbaraning qoldiqlari, toshlari yotibdi, Qabr-maqbara sholipoyaga qo'shib ketishiga sal qolgan", - deydi.

2017-yilning 7-oktabrida O'zbekiston Prezidentining Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili Ismatulla Ergashev G'azni viloyatiga borib, Abu Rayhon Beruniy qabrini ziyorat qildi va bundan ming yil avval G'azni nomini dunyoga taratgan alloma qabri hamon xarobadan boshqa narsa emas ekanligiga yaqindan guvoh bo'ldi.

Bizga ma'lum bo'lishicha, o'tgan yigirma yil davomida bu qabrni qayta tiklash bo'yicha bir necha bor va'dalar qilindi, tekshiruvlar olib borildi, ammo noma'lum sabablarga ko'ra qurilishga oid amaliy ishlar qilinmadi.

Yoshligidan Al-Beruniy bog'i va uning qabrini qo'riqlab kelayotgan 70 yoshli g'aznilik Faxriddin, "bu qabr egasi bo'lmagani uchun shunday xarob holga tushib qolgan", deb noliydi va shunday hikoya qiladi: *"Zohirshoh davri edi, bir kuni Italiyadan bir tadqiqotchi kelib, yonma-yon yaqin turgan ikki qabrni ochib ko'radigan bo'ldi. Qabrlarni ochib ikkita jasad suyaklarini tekshirib ko'rdi. Ulardan biri ayolga va yana biri erkakka tegishligini aytib, bu yonma-yon dafn etilganlardan biri Beruniy, boshqa biri uning xotini ekanligini isbotladi. Bir necha kunlik izlanishlardan so'ng suyaklarni qayta qabrlarga dafn qildi. Lekin o'shandan keyin hech kim bu qabr bilan qiziqmadi va uni qayta tiklash uchun hech kim bu boqqa kelmadi"*.

Faxriddinning aytishicha, o'tgan yillar davomida Beruniy qabrini ziyorat qilish uchun O'zbekiston, Eron va boshqa davlatlardan ko'plab sayyohlar kelib ketishgan. Ammo qabr o'sha eski xaroba holida yotibdi. Asosan hukumatning bu qabrni rekonstruksiya qilishga e'tiborsizligi tufayli shunday qarovsiz holda qolgan.

Eslatib o‘tamiz, sobiq hukumatning so‘nggi yillarida Abu Rayhon Beruniy qabrini qayta qurish masalasi yana bir bor kun tartibiga chiqdi. Alloma tavalludining 1045 yilligi munosabati bilan Shaharsozlik vazirligi tomonidan tayyorlangan loyiha bo‘yicha, maqbara, kutubxona, muzey va bog‘dan iborat Beruniy majmuasini yangidan qurish rejasi, afsuski, avvalgi rejalar kabi qog‘ozda qolib ketdi.

Afg‘onistonda Abu Rayhon Beruniy nomi bilan ataladigan yagona universitet Qobuldan 65 kilometr shimoliy-sharqda joylashgan Kapiso viloyatida. U “Abu Rayhon Beruniy universiteti” nomi bilan atalgan. Bugunga qadar boshqa hech qanday joyga Beruniy nomi berilmagan.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. “Abu Rayhon Beruniy simpoziumi maqolalari xulosasi”. Maqolalar to‘plami. Qobul. 1991 yil.
2. “Bag‘rikenglik madaniyatini mustahkamlash mavzusidagi Beruniy seminari maqolalar to‘plami”. Qobul. 2018 yil.
3. “Ma’naviy hayot” jurnali. Toshkent. 2018 yil, 2-son.
4. <https://setare.com/>
5. Mahdiy Muhaqqiq: “Abu Rayhon Beruniy xususida tadqiqot”. Tehron. 1973 yil.

**TARIX****MAXTUMQULI FIROG‘IY O‘QIGAN MADRASA**

**Dilmurod  
BABOJONOV**

**Xorazm Ma'mun  
akademiyasi Ijtimoiy-  
gumanitar fanlar  
bo'limi katta ilmiy  
xodimi, PhD**

**UO‘K 510.60**

**Annotatsiya:** *Maqolada muallif turkman shoiri Maxtumquli o‘qigan Sherg‘ozixon madrasasining qurilish tarixi, ushbu madrasada o‘qigan ko‘pgina tarixiy shaxslar va shoirlarga bag‘ishlab ekspozitsiyalarni tashkil qilinishi, jumladan turkman shoiri Maxtumquli Firog‘iy hayoti va ijodini yoritib bergan.*

**Аннотация:** *В статье автор освещает историю строительства медресе Шергазихана, где учился туркменский поэт Махтумкули, организацию экспозиций, посвященных многим историческим деятелям и поэтам, в том числе жизни и деятельности туркменского поэта Махтумкули Фероги.*

**Annotation:** *In the article, the author highlights the history of the construction of the Shergazi Khan madrasah, where the Turkmen poet Magtymguly studied, the organization of exhibitions dedicated to many historical figures and poets, including the life and work of the Turkmen poet Magtymguly Ferogi.*

**Kalit so‘zlar:** *Markaziy Osiyo, Xorazm xonligi, Eron shohligi, Sherg‘ozixon madrasasi.*

**Ключевые слова:** *Центральная Азия, Хорезмское ханство, Иранское шахство, медресе Шергази-хана.*

**Key words:** *Central Asia, Khorezm Khanate, Iranian Shah, Shergazi Khan madrasah.*

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillikka erishgandan keyin tariximizni o‘rganish va uni xolisona baholash, ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan tarixiy-me‘moriy obidalarimizni kelgusi avlodlarga o‘z holicha yetkazish, ularni o‘rganishda katta imkoniyat tug‘ildi.

O‘zbek shoirlari Muhammad Yusufbek Bayoniy, Komil Xorazmiy, Turkman shoiri Maxtumquli Firog‘iy, Qozoq olimi Beket ota va Qoraqalpoq shoiri Ajiniyoz Qo‘siyoy o‘g‘li hayoti va ijodiga bag‘ishlangan ko‘rgazmalar Xiva shahridagi Sherg‘ozixon madrasasida joylashgan. Sherg‘ozixon madrasasi Pahlavon Mahmud maqbarasi ro‘parasida joylashgan. Bu madrasa Xivamizda eng taniqli madrasalardan biri bo‘lib, «Maskani Fozilon», ya’ni olimlar uyi nomi bilan tanilgan. Tarixiy manbalarda madrasani qurdirgan Sherg‘ozixon 1714-yilda Xiva taxtiga o‘tirgandan keyin jasur, qo‘rqmas, botir ekanligi butun o‘lkaga ovoza

bo'ladi. 1715-yilda Sherg'ozixon (Eron) Mashhadga yurish boshlaydi. Bunga sabab Mashhaddagi musulmonlarga ozor berayotgan Rustam Alixondan qasd olish edi. Tajan daryosining bo'ylarida shikor etib, Sherg'ozixon turkman qabilalaridan lashkar to'plab, Mashhad ustiga boradi. Mashhadni 2 kun qamal qilib, g'alabaga erishadi. Bundan qo'rqan Rustam Alixon qochib ketadi. Mashhadga Sherg'ozixon Sharifxonni xon qilib, Nishopurga yurish qilib, g'alaba qozonadib Xivaga qaytadi.



1713-yilda Rossiyaga turkmanlarning taniqli kishisi Xo'ja Nafas kelib, Xivada oltin qum borligini, xivaliklar uni ruslardan yashirib ko'mib tashlaganlarini aytadi. Pyotr I bu gapni rost, yolg'on ekanligini bilish uchun odam yuborib, rostligiga ishonch hosil qiladi va Xorazmni bosib

olish payiga tushadi. 1714-yil 29-mayda katta tayyorgarlikdan keyin Pyotr I bu ish bilan Bekovich Cherkasskiy shug'illanishiga buyruq beradi. U Xo'ja Nafas yo'lboshchiligida 1500 ming askar bilan Xorazmga kelib, daryo to'silib, boshqa yerdan oqizilganini ko'radi. Chunki oltin koni ko'mib tashlangan joydan Amudaryo oqizilgan edi. Amudaryoni avvalgi oqimiga qaytarish kerak bo'lib, bu unchalik mehnat talab qilmasligini ko'rib, Bekovich-Cherkasskiy qaytib borib, Pyotr I ga voqeani aytgach, haqiqiy yurishga tayyorgarlik boshlanadi. Chunki Pyotr I o'zidan avvalgi ruslar bosqinchilarining halokatga uchraganini tarixdan yaxshi bilar edi. Pyotr I ni Xivaga yuborgan bosqinchilik ekspeditsiyasi 4 nchisi bo'lib, bunga Kabardinlik knyaz Bekovich-Cherkasskiy boshchilik qiladi. Pyotr I daryoni eski o'zani yonida 1000 kishilik qal'a qurishni, Amudaryoni avvalgi oqimiga qaytarishni, daryo dambasi yonida xivaliklarga bildirmay shahar qurishni, Amudaryo bo'ylab Hindistonning Kaspiyga o'tishni buyuradi. Bu ishlarni bajarish uchun Bekovich-Cherkasskiyga 4000 ming piyoda, 100 otlik, 6 to'p, 200 tuya, 300 otida yuk beradi. 1717-yil yozida Xivada 2 kun davomida qattiq janglar bo'ladi. Ruslar Xiva qo'shinlarini tor-mor qiladi. Sherg'ozixon ochiq jangda dushmanni yengib bo'lmasligini bilib, xiyla yo'liga o'tadi. Xon Muhammad otaliq va Naymon Amir Avaz Inoqni ruslar yoniga yuboradi. Ular Davlat gadoy va Andrey gubernator bilan yarashib, bu urush xonning ixtiyorisiz bo'lgani, xon tinchlik tarafdori ekanini bildiradilar. Aldangan Bekovich-Cherkasskiy muzokaraga kirishadi. Hatto oldindan shartlar ham kelishib olinadi. Lagerlarda sharq udumi bo'yicha sovg'alar ham almashiladi.

Shundan keyin Bekovich-Cherkasskiy qo'shinlarni taqsimlash, askarlarni qishloqlarda mehmon qilishni iltimos qilishadi. Knyaz hech narsadan

shubhalanmay askarlarni bo‘lib beradi. Xivaliklar ularni qishloqlarga keltirib,



himoyasiz qoldirib, ular ustidan g‘alaba qozonadilar. Shunday qilib, Sherg‘ozixon xiyla yo‘li bilan juda kuchli tayyorgarlik bilan kelgan rus ekspeditsiyasini tor-mor qilib, g‘alaba qozonadi. Sherg‘ozixon Mashhadni Sharif xonga topshirib qaytgan edi. Rustam Alixon Mashhadga yana kelib, Sharif xonni o‘ziga yordamchi qilib, o‘zi xon bo‘lib oladi. Bu gapni Sherg‘ozixon eshitib, 1717-yili Mashhadga kelib, bu yerda tartib o‘rnatib (Qizil boshdan) 5000 dan ziyod kishini asir qilib, ko‘p boyliklar bilan Xivaga qaytadi. So‘ngra Sherg‘ozixon o‘zini nomiga madrasa qurdira boshlaydi. Madrasa qurilishida shu 5000

ming quldan foydalangan. Madrasa 1719-1726-yillarda qurib bitkazilgan. Sherg‘ozixon 1726-yil vafot etadi, uning jasadi madrasaning g‘arbiy qismida qorixonaga (hujraga) ko‘milgan. Shergozixon madrasasi 2 qavat, 60 hujradan iborat bo‘lib, uning old tomonidagi pastki qavatdagi hujralarda talabalar tahorat qilishlari uchun adanlar ham bo‘lgan. Madrasa o‘z davrida mashhur bo‘lib, «Maskani Fozilon», ya’ni olimlar uyi deb yuritilgan. Madrasa peshtoqiga 4 ta marmar toshga fors tilida nastaliq xati bilan quyidagi misralar bitilgan:

*Dunyo gulistonidagi bu madrasani  
Jahon shoxi o‘z adli va saxovati bilan qurdirdi.  
Uning yaxshi nomi falak peshtoqida  
Quyosh kabi Sherg‘ozi bo‘lib porlar edi.*

Sherg‘ozixon zamonasida ko‘p olimlar kamol topdi. Xon olim, fozil shoirlar suhbatidan bahra olar edi. Xon haftada 2 marta o‘zining madrasasiga kelib, olimlar bilan suhbatlashar edi. Chunki bu madrasaning kun sayin obro‘-e‘tibori yuksalib borayotgandi. Bu madrasada ko‘pchilik ulamolar, Markaziy Osiyoning buyuk mutafakkir shoir-u olimlari tahsil olgan.

Madrasa 1983-yili qayta ta'mirlanib, o'z holiga qaytarildi. Madrasa hozirgi kunda muzey xizmatini o'tab, sayyohlarga namunali xizmat qilib, o'z holicha saqlab kelinmoqda. Bu binoda Komil Xorazmiy, Maxtumquli, Ajiniyoz va Beket ota uchun hozirgi zamon talablari asosida ko'rgazmalar tashkil etilgan.

Maxtumquli Firog'iy ko'rgazmasi 1990, 1996, 2018-yillarda Sherg'ozixon madrasasida ochildi. Ko'rgazmada o'zbek va turkman xalqining o'tmish tarixi va Maxtumquli hayoti va faoliyati aks ettirilgan. Turkman shoiri Maxtumquli o'z ijodiyoti bilan o'zbek xalqiga juda yaqin turadi. U sharq she'riyatining buyuk namoyondalaridan biridir. O'zbek va turkman xalqlarining sevimli shoiridir. Xiva pedogogika kolleji oldida 1996-yil 28-noyabrda Maxtumquli haykali o'rnatildi.

Turkmanistonlik vakillar so'zga chiqib, ikkala mamlakat qadimiy aloqalarga ega ekanligi, endilikda bu aloqalar yangicha mazmun, yangicha mohiyat bilan boyitilayotganligini, qardoshlik tarixida yangi sahifalar ochilayotganligini bildirdi va o'z estalik sovg'alarini Maxtumquli ko'rgazmasi uchun taqdim qilishdi. Ekspozitsiyada Maxtumquli siymosi tasvirlangan gilamcha chiroyli ko'rinishi bilan o'ziga jalb qiladi. Shuningdek, ko'rgazmada turkman gilami, xurjun, cho'girma, belbog', turkman choponlari, turkman milliy do'ppisi, nay, ayollar taqinchoqlari, shoirning hayoti va ijodiga oid kitoblar Maxtumquli yashagan davrni eslatib turadi.




Maxtumquli (Firog'iy) XVIII asrda yashab ijod etgan. U 1733-yil Turkmanistonning janubi g'arbiy tomonida, Atrek daryosiga yaqin hududda tug'ilgan. Umrining oxirgi yillarida Eronda yashab, 1793-yilda vafot etgan. Maxtumquli umrining ko'p qismi uning o'zi tug'ilgan qishloqda o'tgan. U shunday yozadi:

*Bilmayin so'rganlarga ayting bu g'arib nomimiz  
Asli go'rko'z yurti Atrek oti Maxtumqulidir.*

Maxtumqulining otasi Davlat Mamad (1700-1760) badavlat, o'z zamonasining bilimdon kishilaridan bo'lib, Ozodiy taxallusi bilan ko'plab lirik g'azal va dostonlar yozgan shoiridir. U o'g'lini ilm-fanga, she'riyat chamaniga olib kiradi va unga o'zi ustozlik qiladi. Maxtumquli yoshligidan qobiliyatli, mehnatkash bo'lib ulg'ayadi. Mol boqib, ota-onasi bilan dalalarda ishlagan, egar jabduq tikish, ko'nchilik bilan shug'ullangan, keyinchalik mohir zargar bo'lib yetishgan. U dastlabki ma'lumotni o'z qishlog'idagi ovul maktabida, so'ngra Marg'ilon, Andijon, Samarqand, Buxoro shaharlarida ta'lim olgan. Yana o'qish ishtiyoqida Xivaga kelib, Sherg'ozixon madrasasida ilmini oshiradi. Xiva o'sha



davrlarda O‘rta Osiyoning eng katta madaniy markazlardan bo‘lib, Sherg‘ozixon madrasasi Xivaning eng katta va obro‘li madrasalaridan edi. Maxtumqulining otasi Ozodiy, Andalib, Ajiniyoz ham Xiva madrasasida tahsil olishgan. Madrasada ta‘lim diniy asosda bo‘lib, birinchi navbatda “Qur‘on”, “Tavsir”, “Odobnoma”, “Hadis”, kabi diniy asarlar bilan birga shariyatga oid “Kitobi Fuzuliy”, “Lison-ut tayr”, “Devoni Alisher Navoiy”, “Huvaydo”, “Qissai Devonai Mashrab” kabi asarlar o‘qitilgan. Maxtumquli Sherg‘ozixon madrasasida diniy kitoblarni o‘qish bilan bir qatorda ko‘proq sharq klassik poeziyasi, xalq og‘zaki ijodi asarlarini o‘qib, mutolaa qiladi. Maxtumquli o‘zining erkin va oqilona fikrlari bilan domlarni hayratga solar edi. Hatto domlasi Hazrat Polvon zarur ish bilan bir yoqqa ketib qolgan paytlarida Maxtumqulining o‘zi talabalarga dars bergan. Sherg‘ozixon madrasasida turkman talabalari soni ko‘paygach, ular uchun alohida bo‘lim ham ochilgan.



Maxtumquli Xivada o‘qigan yillari uning 25-28 yoshlariga to‘g‘ri keladi. Bu vaqtda u bir muncha she‘rlar yozib, el orasida shoir sifatida tanilgan edi. Maxtumquli she‘rlarining ko‘rsatkichida uning 376 nomdagi she‘riy asarlari ma‘lum. Turkman olimlarining aniqlashicha, shoirning ko‘pchilik asarlari hayot paytida yo‘qolgan. Qabilalar o‘rtasida o‘zaro janglar bo‘layotgan bir vaqtda, dushmanlar Maxtumquli yashaydigan qabilaga hujum qiladilar va Maxtumqulini asir qilib olib ketadilar. Qo‘lyozmalarini esa Gurgan daryosiga tashlab yuborishgan. Maxtumquli bu fojiali voqeani “Raygon ayladi” nomli she‘rida shunday yozadi:

*Qayg‘u g‘amda aziz umrim so‘ldirib,  
Shu falak azobim raygon ayladi.  
Yozgan kitoblarim selga oldirib,  
Ko‘zlarim yo‘lida giryon ayladi.  
Qo‘lyozma kitobim selga oldirdi,  
Dushmanimni Jayxun daryo ayladi.*

Shoirning yozgan asarlari o‘zbek xalqi orasida keng tarqalib, san‘atkorlar tomonidan hozirgi kungacha sevib ijro qilinadi. U o‘spirinlik chog‘larida Mengli isimli go‘zal bir qizni sevgan. O‘sha davrlarda Maxtumquli Menglixonning otasi so‘ragan qalin pulini to‘lay olmagan, natijada qizning ota-onasi uni boshqa

birovga turmushga bergan edi. Natijada alamdan Maxtumquli Menglixonga bag‘ishlab she‘rlar yozgan.

Maxtumqulining Xivadagi hayoti va ijodi haqida tarixiy manbalarda uning buyuk faylasuf, donishmand ekanligi aytib o‘tilgan. Shoir Xivani ilm-ma‘rifat o‘chog‘i, mo‘tabar dargoh deb biladi. Maxtumqulining vatanparvarlik mavzusida yozgan she‘rlarida aniq tarixiy sharoitdagi ijtimoiy ziddiyatlar, mavjud tuzumdagi adolatsizlik va tengsizlik o‘z ifodasini topgan. Shoir ijodida el-yurtga muhabbat, xo‘rlanganlarga hamdardlik, ularning manfaati uchun kurash, vatanga sadoqat alohida o‘rin tutadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Abdurasulov “Xiva” O‘zbekiston 1997-y.
2. K. Xudoyberganov. “Xiva xonlari shajarasi” Xiva 1996-y
3. K. Xudoyberganov “Xiva xonlari tarixidan” Xiva 2008-y.
4. Mahtumquli “Dunyo o‘tib borodur” Toshkent 2007-y.
5. Q. Quronboev “Maxtumquli she‘riyati O‘zbekistonda”. Toshkent 1984-y.
6. X. Abdullaev “Maxtumquli va o‘zbek adabiy muhiti”. Toshkent 1983-y.
7. Муравев Н.Н. Путешествие в Туркмению и в Хиву. Ч. 2. — М., 1822. — С. 44
8. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма. — С. 7.
9. Игнатев Н.П. Миссия в Хиву и Бухару. — СПб., 1897. — С. 152.
10. Munirov Q. Munis Xorazmiy // Markaziy Osiyo mutafakkir, donimandlar va adiblar. — T: Meros, 1997. — 71-74–bet.

**TARIX****ISMOIL GASPRALINING JADIDCHILIK G‘OYALARI VA UNING  
TURKISTONGA TA’SIRI****UO‘K 574.510****Umid  
BEKMUHAMMAD****Tarix fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori****Nafisa  
ODILOVA****Bursa Uludag  
universiteti magistranti  
(Turkiya)**

**Annotatsiya:** Maqolada Qrimlik Ismoil Gaspralining hayoti va faoliyati, jadidchilik g‘oyalari va maktab, matbuotga asos solishi tahlil qilinadi. Jadidchilik g‘oyalarining Turkistonga ta’siri o‘sha davrga oid manbalar asosida tadqiq etiladi.

**Аннотация:** В статье анализируются жизнь и деятельность крымчанина Исмаила Гаспрали, идеи модернизма и основания школы и прессы. На основе источников того периода изучается влияние идей джадидизма на Туркестан.

**Annotation:** The article analyzes the life and activities of Crimean Ismail Gaspraly, the ideas of modernism and the founding of the school and the press. The influence of Jadidism ideas on Turkestan is studied based on the sources of that period.

**Kalit so‘zlar:** Qrim, Turkiston, Buxoro, Xiva, jadid, maktab, matbuot, “Tarjimon” gazetasi.

**Ключевые слова:** Крым, Туркестан, Бухара, Хива, Джадид, школа, пресс-газета «Тарджиман».

**Key words:** Crimea, Turkestan, Bukhara, Khiva, Jadid, school, press "Tarjiman" newspaper.

Rossiya imperiyasi mustamlakasidagi xalqlarning mahzun hayotini keskin o‘zgartirgan, mudroq g‘ururlarni qayta uyg‘otgan fenomen aynan Qrim shahridan boshlangandi. Dastlab, ta’lim sohasini, keyinchalik esa ijtimoiy, siyosiy, ma’rifiy harakat sifatida jamiyatning barcha qatlamlari, sohalarini qamrab olgan va Milliy Uyg‘onishga asos solgan jadidchilik, 1880-yillarda Rossiya musulmonlari, xususan Kavkaz va Volga bo‘yida yoyilgan shu nomdagi taraqqiyparvarlik harakati sifatida paydo bo‘ldi. Bunda Qrimlik Ismoil Gasprali asos solgan “Usuli jadid” maktablari va “Tarjimon” gazetasi katta rol o‘ynadi va harakatga

asos bo‘lib xizmat qildi. Uning g‘oyalari Turkiston, Buxoro amirligi, Xiva xonligiga ham shiddat bilan kirib keldi.



Tabiiyki, har qanday yangilik, taraqqiyparvarlik g‘oyalari hali nazariya paytidan boshlab har bir davrda to‘sqinliklarga uchraganiga tarixda misollar ko‘p. Aynan shu singari jadidchilik harakati ham, paydo bo‘lganidan boshlab shakllanishi, rivojlanishi davridan nafaqat Turkiston, Buxoroda, balki Qrimning o‘zida, Ismoil Gaspraliga nisbatan ham konservativ kuchlar, mustamlakachilar tomonidan turli to‘siq qo‘yilgan holda, qarshiliklar qilingan.

Shu bilan birga o‘sha davrning o‘zida va shundan boshlab hozirgi paytgacha jadidchilikka bo‘lgan

munosabat jamiyat va ilm-fanda turlicha bo‘lib kelgan. Ya’ni, jadidshunoslikning o‘zi ham ayni harakatning o‘zi bilan tengdoshdir.

Shu o‘rinda Abdulla Qodiriy aytganidek “mavzuni moziydan, tarixning eng kir, qora kunlari bo‘lmish so‘nggi xon zamonlaridan”, ana shu davrga oydin nur kiritishga intilgan, zulmatli zamonga yorqin kelajak umidlarini bog‘lagan, turkiy millat lideri darajasiga yetgan siymo hayoti va faoliyatiga to‘xtalib o‘tsak.

Turkiy musulmon xalqlari hayotida Milliy Uyg‘onishni boshlab bergan jadidchilik harakati, fenomenining asoschisi Ismoilning bobosi Ali Qrimdagi Gaspra qishlog‘ining nufuzli shaxslaridan bo‘lgan. Shu bois ham o‘g‘li Mustafobey Kavkaz va Qrimning general-gubernatori knyaz Voronsov-Dashkovning tarjimoni bo‘lib ishlagan va 1853-yilda poruchik unvoni bilan taqdirlanib, dvoryanlik martabasiga ko‘tarilgan. Mustafobey ikki marta uylanadi. Birinchi turmush o‘rtog‘i 1849-yilda vafot etadi va shu yili Qrimning mashhur Qaytazovlar oilasiga mansub Fotima xonimga uylanadi. Mustafobeyning bu turmush o‘rtog‘idan ikki o‘g‘il va to‘rt qiz tug‘ilgan.

Ismoil 1851-yilning 21-martida ana shu oiladagi ikkinchi o‘g‘il bo‘lib tug‘iladi. Dastlab Boqchasaroylik Hoji Ismoilning eski maktabi, so‘ngra Simferepoldagi gimnaziya, undan keyin Voronej shahridagi harbiy o‘quv yurtida

va 13 yoshidan Moskvadagi Milyutin gimnaziyasida tahsil oladi. 1868-yilda Ismoil Bog‘chasaroyga qaytib “Zanjirli” madrasasida rus tili fani o‘qituvchisi bo‘lib pedagoglik faoliyatini boshlaydi.

1872-yilda Fransiyaga boradi va Parijdan tashqari Vena, Myunxen, Shtutgard shaharlarida ham safarda bo‘ladi. Fransiyada yashayotgan buyuk rus yozuvchisi I.S.Turgenevning kotibi bo‘lib faoliyat ko‘rsatadi. Shuningdek, Sorbonna universitetida tahsil oladi. 1876-yilda Bog‘chasaroyga qaytib, “Zanjirli” madrasasidagi faoliyatini davom ettiradi.

Aynan Yevropa safari Ismoil Gaspralining dunyoqarashiga katta ta’sir qiladi va an’anaviy tahsilning zamonaviy taraqqiyotdan orqada qolganini anglab, ta’lim sohasidagi yangi usul maktabi ochishni rejalashtiradi. Biroq har qanday yangilik singari Ismoil Gaspralining ta’lim sohasida boshlamoqchi bo‘lgan bu harakati to‘siqlarga uchraydi.

Shunday bo‘lsa-da, ajdodlarining nufuzi, qolaversa o‘zining Yevropada tahsil olgani bois, 1878-1884-yillarda Bog‘chasaroy shahri boshlig‘i vazifasida faoliyat ko‘rsatadi. Bog‘chasaroy meri janob Ismoil Gasprali 1882-yilda Qozon tatarlaridan Akchurinning qizi Zuhroxonim bilan oila quradi va Rifat, Shafiqa, Bahiya, Doniyol, Nigor, Mansur, Haydar ismli farzandlarni tarbiyalashadi. Laylo kichikligida vafot etadi.

Merlikdan iste’foga chiqqach, Ismoil Gasprali o‘zining keyingi faoliyatini matbuot va pedagoglikka bag‘ishlaydi. 1883-yildan “Tarjimon” gazetasini nashr etishni yo‘lga qo‘yib, o‘ziga xos jadidlar minbarini yaratdi va dunyodagi jarayonlar, Rossiya imperiyasi, bu hududlarda yashovchi turkiy musulmon xalqlar hayoti, ularni taraqqiyotga yetkazish bilan bog‘liq takliflarni ko‘tarib chiqdi, muammolarga yechim izladi. Aynan “Tarjimon” gazetasi o‘z davridagi jadidlar minbari, turkiy musulmon xalqlarning tayanchi, huquqlari, kafolati va erkin ovozi darajasiga yetdi.

Bora-bora faqat Qrimda emas, turkiy musulmon xalqlar yashaydigan har bir hududning ham jadid nashrlari paydo bo‘la boshladi.

1884-yildan esa yangi usul - jadid maktabiga asos soladi va tezda bunday ta’lim turidagi maktablar dastlab Qrimda, keyinchalik esa Qozon, Ufa va Kavkaz, Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligi shaharlarida ham tashkil etila boshlanadi.

Dunyoviy fanlar o‘qitiladigan ushbu maktablar tez orada eski deb ataladigan an’anaviy va rus tuzem maktablariga raqobatchi sifatida ta’lim maskaniga aylanadi. Aynan Gasprali tomonidan “Xojai sibyon” (1888y)- “Bolalar muallimi” kabi darsliklar yaratiladi. Darslikning har bir sabog‘idan keyin savollar berilgan bo‘lib, muallif fikricha ular o‘quvchilarning darsni anglashlari va imtihon topshirishlari uchun buyuk vosita edi. Muallif o‘qish-o‘qitishning yangi usuli haqida to‘xtalar ekan, bolalarga mohiyatni tushuntirmasdan quruq yodlatish zararli ekanligiga e’tibor qaratadi va har bir harfni alohida “sadosi bilan”

muntazam va izchil o'rganishni ta'kidlaydi. Ushbu usul shunga ko'ra "usuli savtiya" (tovush usuli) deb ham ataldi.

Shu tariqa, o'qitiladigan darsning mazmunidan uni o'qitish usuli va baholash jarayonigacha, o'quvchining dars tinglaydigan darsxonasidan dars jadvali-yu qishki va yozgi ta'tiligacha, maktabning joylashish o'rnidan, sinf xonalarining jihozi-yu yorug'lik darajasigacha zamonaviy asoslarda ko'rib chiqilib, maktab ta'limining yangi dasturi maydonga keltirildi. Ismoil Gaspralining ta'lim sohasidagi bu yangi dasturi "usuli jadid" nomi bilan dovruq qozondi.

Ismoil Gasprali pedagoglik, matbuotchilikdan tashqari, "Solnomai turkiy", "Mir'oti jadid" nomli ikkita risola, "Rossiya musulmonligi", "Turkiston ulamosi" asarlarini ham yaratdi. Bu borada yana Ismoil Gasprali faqat pedagoggina emas, o'tkir publitsist, jamoat arbobi va siyosatchi sifatida e'tirof etilishida "Tarjimon" gazetasi, unda berib borilgan millatning dardu hasratlari, istiqbollari to'g'risidagi maqolalari, shuningdek yuqoridagi singari asarlari katta rol o'ynadi.

Ana shunday serqirra faoliyati bois, Ismoil Gasprali nafaqat Rossiya imperiyasida, shuningdek Usmoniylar saltanatida, umuman olganda turkiy dunyo va Yevropada ham nufuzi katta shaxsga aylandi.

Tabiiyki, u nufuzini, ta'sir kuchini o'zining jadidchilik g'oyalarini keng tarqalishiga safarbar qildi. Shu maqsad, g'oya yo'lida u 1893-yilda Shirvonlik shogirdlaridan Majid G'anizoda bilan Turkistonga tashrif buyurib, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Toshkent shaharlarida safarda bo'ldi va jadid maktablari tashkil etish borasidagi faoliyatini davom etdirdi, maslakdoshlari bilan tanishdi.

Gaspralining Turkistonga sayohati "Tarjimon" gazetasining 1893-yilgi 29-38- va boshqa bir qismi 40-43-sonlarida chop etilgan. Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Tohir Qahhor tadqiq qilganidek, "Gaspralining barcha o'lkalarga safar qilishidan ikkita maqsadi bo'lgan: birinchisi-yangi usuldagi maktablar ochishni tashkil etish, ikkinchisi -"Tarjimon" gazetasining tarqalishi bilan bog'liq masaladir. Turkistonga ham u ayni ana shu niyatlarini amalga oshirish uchun kelgandi. Asarlaridan va u haqdagi esdaliklardan ma'lum bo'lishicha, Ismoilbek sharqu g'arbning ko'plab davlat arboblari, yuksak doiralari bilan yaxshi munosabat o'rnatgan shaxs edi" (Tohir Qahhor "Ismoilbek Gasprali va uning Turkiston sayohatlari", "Jahon adabiyoti" jurnali -2010 -yil, oktabr).

Ismoil Gaspralining Turkistonga ikkinchi safari 1908-yilga to'g'ri keladi. Safar tafsilotlari "Buxoroda na ko'rdim?" sarlavhasi ostida "Tarjimon"ning o'sha yilgi sonlarida (47,50,57-59,64,78) chop etilgandi. Gasprali Kaspiy dengizidan "General Skobelev" kemasida kelib, Krasnovodskdan poezdga o'tarkan, Rossiya bosqini paytidagi Ko'ktepa urushini eslaydi. Qal'a aholisining "butun Osiyoga shuhrat va ibrat deya bola-chaqasi barobar qilichdan kechurulub, ot oyog'ida toptalgani"ni alam va izzat bilan yodga oladi.

Ismoil Gaspralini Yangi Buxoro (Kogon) temir yo'l bekatida amir amaldorlari va Rossiya siyosiy agentligi tarjimoni Mirhaydarbek kutib olishadi.

Amir uni Karmanaga taklif etadi. Ziyofat asnosida valiahd Sayyid Olimxon bilan uchrashadi. Valiahdning Rossiya matbuotini muntazam o‘qib borishidan, dunyo voqealaridan xabardorligidan voqif bo‘ladi.

So‘ngra Samarqandga borib, shahardagi “usuli jadid” maktablari bilan tanishadi. Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulqodir Shakuriy singari maslakdoshlari bilan maqsad-u vazifalari, ta’limoti to‘g‘risida uzoq suhbatlar quradi. Mavzudagi asosiy mohiyat tarix va kelajak, muqaddas obidalar va ularning taqdiri, Rossiya istilochilik siyosati va ana shu sharoitda o‘zlikni saqlab qolish haqida bo‘ladi.



Samarqanddan qaytishda yana Buxoroga keladi va Qushbegi Ostonaqulbek bilan faoliyati to‘xtab qolgan jadid maktabini yuritish bo‘yicha muzokara olib boradi. Asosiy to‘sqinlik qozikalon tomonidan ekanligini anglab, huzuriga boradi va uning maktabni tiklash haqidagi va’dasini oladi. Safar davomida Buxorodagi no‘g‘oylar Ismoilbekni mehmonga chaqirib, “Jamiyati xayriya” tashkilotiga faxriy a’zo qilishadi. Yangi ochilgan bir maktabni uning sharafiga “Ismoiliya” deya atamoqchi ekanliklarini aytishadi. Biroq Ismoilbek bunga unamaydi va boshqa taklif-Amir

Abdulahadxonning marhum padari hurmatiga “Muzaffariya” deya nomlashni maslahat beradi.

Ismoil Gasprali faqat pedagog, publitsist, noshir va jamoat arbobigina emas, taniqli adib sifatida ko‘plab badiiy asarlar ham yaratgan. Uning “Farangiston maktublari” (1887), “Dorur-rohat musulmonlari” (1889), “Sudan maktublari” (1889), “Xotinlar o‘lkasi” (1890), “Gulbobo ziyorati” (1908), “Arslon qiz”, “Kun tug‘di”, “Ivan va Sulaymon” (1897) kabi ko‘plab nasriy asarlari mavjud. Ayrimlari o‘zbek tiliga tarjima ham qilingan. Asar voqealari deyarli hammasida muallif tilidan hikoya qilinadi.

Ismoil Gasprali jadidchilik harakatining dunyoda e’tirof etilgan lideri edi. Ana shu boisdan Turkistonda XIX asrning oxirlaridan ko‘zga tashlangan yangilanish harakatlari ko‘p jihatlari bilan shu nomga, uning “Tarjimon” gazetasiga kelib bog‘lanadi. Va ushbu davrdan e’tiboran XX asrning 20-yillariga qadar faoliyat ko‘rsatgan biror turkistonlik ziyoli yo‘qki, bu nomni chetlab o‘tmagan. Shu sababli, uning ijodiy faoliyati va ayniqsa, maslak-intilishlari bilan tanishish Turkiston jadidchiligi va jadid adabiyotining shakllanish hamda

rivojlanish bosqichlarinigina emas, umuman mazmun-mohiyatini anglashda, yo‘nalishlarini belgilashda ham benihoya muhim ahamiyatga ega.

Professor Begali Qosimov “Milliy uyg‘onish” asarida haqli ravishda yozganidek, “Ismoil Gasprali ismi sharifi 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida turkiy dunyodagi eng mashhur nom edi. Uni Qashqardan Londongacha, Sankt-Peterburgdan Bombeygacha bilar edilar. U chiqargan “Tarjimon” gazetasining 1908-yildagi 25 yillik qutlug‘ sanasida Xitoyning “Tarancha”sidan tabrik telegrammasi kelgan. 1910-yilda esa Fransiyaning eng e‘tiborli jurnallaridan “Revyu dyu monde musulman” uning millat oldidagi buyuk xizmatlari uchun nomzodini “Tinchlik borasidagi Xalqaro Nobel Mukofoti”ga tavsiya qilgan va buni xorijiy mamlakatlardagi juda ko‘p matbuot organlari qo‘llab-quvvatlab chiqqan edi.

U vafot etgan 1914-yilning 11-sentabrida mashhur Narimon Narimonov yozadi: “Millat Ismoilbek kabi qahramonlarini unutsa, o‘z hayotini barbod etajakdir”. Negaki u tirikligidayoq millatning otasi, rahnamosi degan nom oldi. Uning eng katta xizmati Rossiya sarhadida yashab turgan, lekin zamonning zayli bilan bir-biridan uzoq tushgan (to‘g‘rirog‘i, uzoqlashtirilgan) va begonalashish darajasiga yetgan turkiy xalqlarni bir-biriga tanitdi. Behbudiy so‘zlari bilan aytganda, “Rossiyadagi butun turk-tatar xalqlarini juda oz tarixiy muddatda xayrxo‘shlik yo‘li bilan yaxlit bir milliy oilaga birlashtirmoqqa noil bo‘ldi”. Bu dard o‘sha davr chor Rossiyasi asoratida o‘z erku huquqigina emas, asriy urf-odat, ma‘naviy qadriyatlaridan tortib, til va din-e‘tiqodigacha unutishga mahkum qilingan turkiy xalqlarning eng katta dardi, so‘ngsiz armoni edi.

Ismoil Gasprali Sharq xalqlari ma‘naviy hayotida, xususan, maktab-maorifida chinakam inqilob yasagan, “usuli jadid” nomi bilan tarixga kirgan “usuli savtiya”ni boshlab berdi. XX asr Sharqining eng mashhur, eng taraqqiyparvar harakatchiligiga- jadidchilikka asos soldi.

Gasprali barcha turkiy xalqlarni yaxlit, yagona millat deb bildi. Ularni ham ilm-ma‘rifatda, haq-huquqda dunyoning taraqqiy qilgan millatlari bilan teng, baqamti ko‘rmoqni orzu qildi. Butun aqli-vujudini mana shu muqaddas ishga-millatning ravnaqi va muhofazasi yo‘liga sarf etdi. Bu shunchaki mutaassibona bir orzu emas, zamonasining baland-pastidan xabardor, tarix va taqdirini teran anglagan, Sharqni ham, G‘arbni ham bab-baravar bilgan va bab-baravar ko‘rgan bir kishining aniq va rejali hatti-harakati edi” ( “Milliy uyg‘onish”, “Ma‘naviyat” nashriyoti, Toshkent-2002 yil,. 162-163-betlar).

Natijada Ismoil Gaspralining maktab sohasidan boshlangan jadidchilik harakati jamiyatning barcha sohalari, qatlamlarini qamrab oldi va turkiy musulmon xalqlarning mafkurasiga, fenomenal hodisasiga aylandi hamda Gasprali nomi islohotchi sifatida tarixda qoldi.



**TARIX****G.P.SNESARYOV TADQIQOTLARINING ETNOGRAFIYA FANI  
RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI****Sadoqat  
MATKARIMOVA****Tarix fanlari doktori  
(DSc), dotsent.****UO‘K 570.511**

**Annotatsiya:** Maqolada G.P.Snesaryovning hayoti va faoliyati Xorazm vohasi bilan bog‘langan holda tadqiq qilinadi. Olimning etnografiya fani rivojiga qo‘shgan asarlari ham tahlil etiladi.

**Аннотация:** В статье рассматривается жизнь и деятельность Г.П. Снесарева, связанная с Хорезмским оазисом. Также анализируются труды ученого, внесшего вклад в развитие этнографической науки.

**Annotation:** The article examines the life and work of G.P. Snesaryov in connection with the Khorezm oasis. The works of the scientist that contributed to the development of ethnographic science are also analyzed.

**Kalit so‘zlar:** Etnografiya, Sankt-Peterburg, Moskva, Xorazm, Samarqand, ekspeditsiya, rivoyat, afsona, muzey.

**Ключевые слова:** Этнография, Санкт-Петербург, Москва, Хорезм, Самарканд, экспедиция, повествование, легенда, музей.

**Key words:** Ethnography, St. Petersburg, Moscow, Khorezm, Samarkand, expedition, narrative, legend, museum.

Xorazm tarixi va xorazmliklarning hayoti va faoliyatini tadqiq qilishda A.L.Kun, V.V.Bartold, A.Samoylovich, P.Ivanov, A.Yu.Yakubovskiy, B.D.Grekov, M.Yo‘ldoshev, Z.Bunyodov yaratgan asarlarning ahamiyati qanchalik katta bo‘lsa, S.P.Tolstov va u boshchiligidagi Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi a‘zolari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ham roli shunchalik yuqoridir. Ushbu olimlarning asarlari har qanday mafkura va davr sinovlariga dosh beraoladigan tadqiqotlar bo‘lib, vaqt hukmi ila avloddan avlodga ularning qadri, ilmiy ahamiyati, salohiyati oshib boraveradi. Shu bilan birga tadqiqot mualliflari va ularning faoliyatiga bo‘lgan qiziqish ham tarix ixlosmandlarida yanada yuksaklikka ko‘tariladi. Negaki asarlari e’tirof etilsa-yu, shu tadqiqotni olib borgan olim shaxsi, hayoti va faoliyatiga befarqlik bilan qaralsa, tanganing butunligi buzilgandek, uzukka qadalgan ko‘z yo‘q bo‘lganidan qadr-

qimmatini tushgandek tuyulaveradi. Ana shu sabablarga ko‘ra olim asarlari hayoti, shaxsi bilan birga yuksaklik kasb etmog‘i, nomi abadiylashtirilsa avlodlar bardavomligi yuzaga kelgan bo‘ladi.


Ana shunday e‘zozga, ehtiromga loyiq rus olimi Gleb Pavlovich Sneryov bo‘lib, u 1910-yil 15-iyunda Sankt-Peterburg shahrida shifokor oilasida tavallud topgan. Gleb Sneryov 1926-1930-yillarda Moskva Davlat universitetining tarix-falsafa fakultetida tahsil oladi. O‘qishni tugatgach, O‘rta Osiyo xalqlari hayotiga qiziqqanidan Samarqandga kelib, 1931-1936-yillarda O‘zbekiston Markaziy davlat muzeyida ilmiy xodim sifatida faoliyat ko‘rsatadi. Samarqandda ishlayotgan Sneryov o‘zining mutaxassisligi sabab, qolaversa shaxsiy qiziqishi bois O‘zbekistonning turli viloyatlarida safarda bo‘ladi. Jumladan, 1932-yili Xorazmga ham tashrif buyuradi va tadqiqotlar olib boradi. 1936-1945-yillarda esa Moskvadagi din tarixi va ateizm muzeyida ilmiy xodim, islom dini bo‘limi mudiri vazifalarida mehnat qiladi.

Gleb Pavlovichning aynan 1952-1958-yillarda Moskvadagi etnografiya institutida ilmiy xodim sifatida ishlayotganida shu davrda faoliyat ko‘rsatayotgan Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiya safida qadimiy vohaga tashrif buyurdi. Xorazmning turli hududlarida olib borgan izlanishlari asosida 1970-yilda “Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari” monografiyasi asosida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi.

Etnograf olim sifatida Gleb Pavlovich Sneryovning Xorazm tarixini o‘rganishda katta ahamiyatga ega uchta asari va 30 dan ortiq ilmiy-ommabop maqolalari bo‘lib, ularning qadri yil sayin oshib bormoqda.

Olimning “Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari”(1969-yil), “Xorazm osmoni ostida” (Etnografik ocherklar, 1973-yil), “Xorazm afsonalari O‘rta Osiyo diniy inonchlar tarixi bo‘yicha manba sifatida” (1983-yil) deya nomlangan ushbu asarlar va etnografiyaga oid maqolalarisiz Xorazm tarixi, etnografiya fani kemptikdek bo‘lib qoladi. Tarix va etnografiya aynan Sneryov asarlari bilangina butunlik kasb etadi va qaysiki

etnograf uning asarlariga murojaat qilmasa, demakki Xorazm etnografiyasining kirish qismiga qadam ham qo‘ymagan bo‘ladi.



Tabiiyki, boshqacha iqlim, boshqacha muhitda voyaga yetgan Gleb Pavlovich uchun O‘zbekiston, xususan Xorazmda yashash, izlanishlar olib borish osonlik bilan kechgani yo‘q. Albatta undagi tabiatan, siyratan olimlik hissi uni har qanday qiyinchiliklardan olib o‘tdi. Snস্যaryov olim sifatida Xorazmga tashrif buyurib, tadqiqotlar olib borish jarayonida o‘zi ko‘rgan, kuzatgan voqeliklarini oldingi jarayonlar bilan

taqqoslab ko‘rardi.

“Bugunga kelib Xorazm vohasining eng chekka, aholisiz hududlarida kezib yurar ekanmiz, endilikda bizga suvsizlik, karvonlarga hujum qiladigan qaroqchilar qilichi zarbasi xavf solmaydi. Cho‘lda va gullab-yashnayotgan madaniyat hududlarida Vamberiga xavf tug‘dirgan hamma xavf-xatarlar afsonaga aylangan. Xonlar, amirlar, ularning ayyor vazirlari, haramlar, jallodlar, shafqatsiz navkarlar allaqachon tarix sahifalaridan o‘z o‘rnini topishgan. Ilgari yuz yillar mobaynida omochlarga qaddi bukilib, yerlarni ozg‘in ho‘kizlar bilan haydab yurgan dehqonning dalalarida hozirgi kunda traktor va paxta teruvchi mashinalar mag‘rurona faoliyat ko‘rsatmoqda. Maydonlarga suv chiqarib beradigan chig‘irlar o‘rnini yangi mexanizatsiyalashgan suv chiqaruvchi moslamalar egallagan. Tekislik


bo‘ylab sochilgan ovullar va kulbalar o‘rnini cheksiz paxta dalalari bilan o‘ralgan elektrlashgan yangi mahallalar egallagan. Ilgarigi karvon tuyalari yurgan tor so‘qmoqlarda, hozirda asfalt yo‘llarda, so‘nggi markali avtomashinalar qaergadir shoshib yurishadi. Xon saroylari va ularning amaldorlari uylari o‘rnida muzeylar va boshqa madaniy inshootlar tashkil qilingan...”

Ha, O‘rta Osiyo, xususan Xorazmda tadqiqot olib borish uchun Vamberi kelgan 1863-yil bilan, Gleb Sneryov tashrif buyurgan davr oralig‘ida, o‘zi yozganidek, katta farq bor edi. Biroq, ana shu o‘zgarishlar jarayonida fanga katta e‘tibor qaratilsa-da, bu o‘lka tarixini S.P.Tolstov va uning ekspeditsiyasi, Ya.G‘ulomov, K.L.Zadixina, M.V.Sazonova, Yu.V.Knorozov, G.Sneryov kabi Xorazmlik bo‘lmagan fidoyi, haqiqiy olimlar tadqiq qilish bilan shug‘ullanishdi. Fidoyilik deganimiz shundaki, boshqacha iqlimdan kelgan bu olimlar oldida ham o‘ziga yarasha qiyinchiliklar mavjud edi: “Bizni ham jazirama kuydirar, bahor yomg‘irlari ivitar, yo‘lda bizni tun qarshilar edi va kamtarona kechki ovqatimizni tayyorlagan holda kunlarimizni gulxan yonida biror bir narsa bilan ermak qilib o‘tkazardik. Bizga qum barxanlari ostida qolib ketishimizga yoki nam sho‘rxoklarga botib qolishimizga va tog‘ daralarida sharros yomg‘irdan mashina brezenti ostiga yashirinishga ham to‘g‘ri kelgan. Darveshlar singari biz ham kunlar va yillar davomida, uylarni kezib, odamlardan bu o‘lka va uning aholisi haqida nimaiki bo‘lsa oz-ozdan yig‘ib, ma‘lumotlarimiz zahirasini to‘ldirib bordik. Bu o‘lka odamlari saxiy va qo‘li ochiq bo‘lib, bizning “darvesh xaltamiz” hech qachon bo‘sh qolmas edi.....”.

Ana shu tarzdagi faoliyatlari davomida to‘plagan ma‘lumotlarni G.P.Sneryov va uning hamkorlari, tabiiyki, olimga xos tahlil, taqqoslashlar asosidagina qog‘ozga tushirishardi. Bu haqda etnografning o‘zi shunday yozgandi:” Xorazmdan yig‘ilgan materiallarni bir tizimga solish, umumlashtirish va ularni Xorazmdagi o‘zbeklar bilan etnogenetik tomondan aloqador bo‘lgan O‘rta Osiyo hududidagi boshqa xalqlar madaniyatiga qiyoslash endilikdagi asosiy vazifalardan biri edi”.

Snesaryov bu vazifalarning uddasidan chiqdi va o‘zidan etnograflar uchun doimo qo‘llanma bo‘ladigan asarlar yozib qoldirdi.

Uning asarini keyingi davrda ikkita olim tarjima qilib, nashr ettirishga muvaffaq bo‘ldiki, bu ulardan katta mehnat, fidoyilik talab qilgani tabiiy.



“Xorazmliklarning musulmonlikdan avvalgi marosimlari va urf-odatlari” nomli asarini tarjima qilgan folklorshunos, filologiya fanlari doktori, professor Saparboy Ro‘zimboev Snesaryov asarining katta ahamiyati haqida shunday yozadi: “ mana zahmatkash olimning ushbu tadqiqotni amalga oshirganidan keyin ham 50 yil o‘tdi. Hayot o‘zgardi, jamiyat yangilandi, ammo yillar o‘tgan sayin mazkur tadqiqotning ilmiy qimmatini tobora oshib boradi, bu tabiiydir. Chunki, Gleb Pavlovich 1932-yildayoq bu ishni boshlagan bo‘lsa, bundan qariyb bir asr oldingi

davrda yashagan kishilar bilan muloqotga kirishgan.

Agar uning suhbatlashgan axborotchilaridan ayrimlari o‘sha davrda 80 yoshlarda bo‘lsa, demak, etnograf 19-asr o‘rtalaridagi hayot manzaralari bilan tanish bo‘lgan... Shu narsani ham ta’kidlash joizki, o‘sha davrlarda Xorazm vohasining eng qadimgi obidasi “Avesto” haqida hech bir tadqiqotchi biror bir ma’lumotga ega emas edi. G.P.Snesaryov esa o‘sha obidani to‘la o‘rganib, monografiyasidagi

muammolarni hal qilishda unga tayanib ish ko'rgan. O'z navbatida etnograf ayrim muammolarni arxeologik qazishmalar natijasida qo'lga kiritilgan ashyolar vositasida tahlil qilishga erisha olgan. Mana shu omillar monografiyaning ilmiy-nazariy jihatdan mukammal chiqishiga zamin hozirlagan.... G.P.Snesaryov sho'ro davrining eng qaltis paytlarida yashagan, baxti chopib qatag'on balosidan omon qolgan edi. Shu bois, asarni yozishda ham ancha ehtiyotkorlik bilan ish olib borgan. O'sha davr mafkurasini quvvatlashga majbur bo'lgan. Biroq ushbu monografiyada o'sha yillarda odat tusiga kirgan komfirqaga madhiya aytish, uning "tarixiy" hujjatlaridan ko'chirma keltirish tamoyilini chetlab o'tgan. Xullas, Xorazm, umuman, O'rta Osiyo xalqlari uchun u buyuk bir ma'naviy meros qoldirib ketgan...".

Olimning ikkinchi asari - "Xorazm osmoni ostida" nomli etnografik ocherklari (monografiya)ni kamina va tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Nazokat Matkarimova bilan hamkorlikda tarjima qilib, nashr ettirgandik.

**TARIX****IJTIMOY TA'MINOT TIZIMI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI****UO'K 75.056**

**Ollabergan  
Allaberganov**

**Ma'mun universiteti  
Tarix kafedrası  
o'qituvchisi**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ijtimoiy ta'minot tizimi va uning huquqiy asoslari tahlil va tadqiq qilinadi. Fuqarolarning ijtimoiy himoyadan foydalanishiga oid meyoriy hujjatlar yoritib beriladi.

**Аннотация:** В данной статье анализируется и исследуется система социального обеспечения и ее правовая основа. Разъясняются нормативные документы по использованию социальной защиты граждан.

**Annotation:** This article analyzes and researches the social security system and its legal basis. Normative documents on the use of social protection by citizens will be explained.

**Kalit so'zlar:** mehnat, ijtimoiy himoya, nafaqa, sog'lomlashtirish, qonun.

**Ключевые слова:** работа, социальная защита, пособие, здравоохранение, право.

**Key words:** cocktail, social protection, allowance, health care, law.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardanoq insonparvar, demokratik, huquqiy davlatni, fuqarolik jamiyatini barpo etar ekan, xalqaro huquqning umume'tirof etgan qoidalari ustunligini tan oldi va fuqarolarga jahon standartlari darajasida moddiy-ijtimoiy turmush sharoiti va darajasini ta'minlab berishga, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, qariyalar, yetim-yesirlarni qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor berila boshlandi. Fuqarolarning ijtimoiy ta'minot huquqining kafolatlanishi, ijtimoiy himoyadan foydalanish uchun ajratilgan mablag'lar to'g'ridan-to'g'ri davlat byudjeti va homiylar (turli jamg'arma va tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar) mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi belgilab qo'yildi.

Ijtimoiy ta'minot miqdori va uni taqdim etish tartibi milliy urf-odatlar va xalqaro me'yorlarga asosan ishlab chiqilgan qonunchilik hamda davlatning iqtisodiy imkoniyati doirasida amalga oshiriladi. Pensiyalar (keksalik, nogironlik, boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha, yolg'iz keksalarga) to'lovlari ijtimoiy ta'minotning eng muhim turlari hisoblanadi. Qariyalar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish — nogironlarni „Muruvvat“ uylariga, yolg'iz qariyalarni „Saxovat“ uylariga joylashtirish, muhtojlarni protez-ortopediya va harakatlanish vositalari bilan ta'minlash, nogiron bolalarni kasbga o'qitish va

ishga joylashtirishda yordam ko‘rsatish, pensionerlarni sanatoriy va dam olish uylarida sog‘lomlashtirish, ularga shahar jamoat transportlaridan foydalanishda, turar joy, maishiy xizmat va soliqlarga aloqador imtiyozlar berish kabi ishlar amalga oshirishi ijtimoiy ta‘minotning mazmun-mohiyatini belgilab beradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.** Tarixiy nuqtaiy nazardan O‘zbekistonda ijtimoiy ta‘minot tizimi XX-asrning 20-yillari boshidan shakllana boshlagan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng 90-yillar boshidan bozor munosabatlariga o‘tish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholini, ayniqsa nochor guruhlarni aniq manzilli va maqsadli ijtimoiy himoya qilish tizimi barpo etildi, pensiya jamg‘armasi, ijtimoiy nafaqalar, ularning indeksatsiyasi kabi tushunchalar va tuzilmalar amal qila boshladi.

O‘zbekiston SSRda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, viloyat va Toshkent shahar Mehnat va aholini ijtimoiy muhofza qilish boshqarmalari, 213 ta tuman va shahar ijtimoiy bo‘limi, 26 ta “Muruvvat” va 8 ta “Saxovat” qariyalar uylari, Urush va mehnat faxriylari respublika pansionati (*PANSIONAT* (frans. *pensionnat*) — dam olish uyining bir turi yoki kurortda dam oluvchilar, mehmonxona) (1970), “Nuroniy” (Toshkentda), “Oltiariq” (1979) va “Tovoqsoy” (1971) sanatoriylari, Nogironlarni tibbiy-ijtimoiy va kasb bo‘yicha sog‘lomlashtirish milliy markazi va uning 10 ta mintaqaviy markazlari, Tayanch-harakat qilish tizimi buzilgan nogironlarni sog‘lomlashtirish respublika markazi, 180 ta tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyalari (TMEK), 3 ta nogiron bolalar uchun kasb-hunar bilim yurtlari aholiga xizmat ko‘rsatib kelgan<sup>1</sup>.

Mustaqillikning dastlabki kunlardanoq Respublikamizning birinchi Prezidenti I. A. Karimovning «...demografiya sohasidagi real ahvolni, aholining mavjud turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o‘tish bilan bir qatorda odamlarni ijtimoiy himoyalash sohasida kuchli chora-tadbirlarni oldindan amalga oshirish kerak. Ijtimoiy himoyalash va kafolatlarning kuchli, ta‘sirchan mexanizmi mavjud bo‘lgandagina ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlab qolgan holda bozor iqtisodiyoti sari tinimsiz rivojlanib borishni ta‘minlash mumkin<sup>2</sup>»ligi haqidagi g‘oyalari mamlakatimizda ijtimoiy ta‘minotning amalga oshirilishidagi tub tamoyilini tashkil qildi.

Darhaqiqat, ijtimoiy ta‘minot aholining farovonligini ta‘minlash uchun ko‘riladigan chora-tadbirlar yig‘indisi bo‘lib, uning tarkibiga ta‘lim, sog‘liqni saqlash, mehnat layoqatini tiklash, bolalar va kattalar uchun ijtimoiy xizmatlar,

---

1 O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Ziyouz.com kutubxonasi. 65-66-betlar [https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston\\_milliy\\_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20I%20harfi.pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbekiston_milliy_ensiklopediyasi/O'zbekiston%20Milliy%20Ensiklopediyasi%20-%20I%20harfi.pdf)

2 Karimov.I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. -T.: O‘zbekiston, 1995-yil. 11-bet.



davlatning yordami, ijtimoiy sugʻurta, jismoniy va aqliy zaif odamlarga ijtimoiy koʻrsatiladigan xizmatlar kiradi.

Ijtimoiy taʼminot - tarixiy nuqtaiy nazardan davlat, jamiyat va inson hayotida asosiy oʻrin egallagan boʻlib, bevosita iqtisodiyotning rivojlanishiga, qariyalar, nogironlar, ishlash qobiliyatiga ega boʻlmagan aholining ijtimoiy farovonligini taʼminlashga qaratilgan siyosiy islohatlar bilan chambarchas bogʻliq boʻlgan jarayon hisoblanadi.

Ijtimoiy taʼminot maʼlum bir toifadagi fuqarolarni moliyaviy qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan davlat byudjeti va jamgʻarmalar hisobidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy himoyaga muhtoj boʻlgan fuqarolarning, jamiyat aʼzolarining qolgan qismi bilan solishtirgan holda ijtimoiy mavqeini tenglashtirish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlardir<sup>3</sup>.

N.A.Vigdorichik, L.V.Zabelin, V.Durdenevskiy, V.S.Andreyev, R.I. Ivanova, Y.I.Astraxan, V.A.Acharkan, K.S.Batgin kabi bir qator rus olimlari ijtimoiy taʼminot tizimining shakllanishi va xususiyatlarini oʻrganganlar.

V.Durdenevskiy talqini boʻyicha - Ijtimoiy taʼminot davlatning rivojlanishiga tahdid soluvchi ijtimoiy xavflarni bartaraf etishga qaratilgan, jamiyatning turli darajadagi qatlamlarini ijtimoiy yoki pul koʻrinishidagi(moddiy) yordam orqali farovonligini taʼminlash borasida amalga oshirilgan islohotlar majmuyidir<sup>4</sup>.

V.S.Andreyev - Ijtimoiy taʼminot davlat tomonidan keksalik va mehnatga layoqatsizlarga, bolalarga ijtimoiy xizmatlar, tibbiy yordam koʻrsatish borasida amalga oshiriladigan yoki fuqarolarni moddiy taʼminlash uchun qoʻllab-quvvatlanadigan muayyan ijtimoiy-iqtisodiy chora-tadbirlar majmui ekanligini taʼkidlaydi.<sup>5</sup>

R.I. Ivanovanning fikriga koʻra, ijtimoiy taʼminot – “ bu hayotiy ehtiyojlarni qondirish uchun davlat va jamiyatning turli xil jamgʻarmalar, maxsus fondlar hisobidan kasallar, qariyalar, (boqimanda) boshqalar qaramogʻida boʻlganlar, bolalar, ishsizlar, jamiyatning barcha aʼzolarining sogʻligʻini saqlash, moddiy neʼmatlarni teng taqsimlash va tarqatish shaklidir»<sup>6</sup>.

Ushbu taʼrif mazmunan serqirra boʻlib, aynan qaysi tarixiy sharoitda tashkil qilinishidan qatʼiy nazar, ijtimoiy taʼminotning mohiyatini aks ettiradi.

3 Кобзева, С. И. Источники права социального обеспечения России: монография. – М.: Проспект, 2009. – 246 с.

4 Право социального обеспечения. Общая часть : учебник / коллектив авторов ; под ред. М.О. Буяновой. — Москва : КНОРУС, 2021. - 7 с.

5 Андреев В.С. Право социального обеспечения в СССР: Учебник. - М., 1974. - С. 10;

6 Иванова Р.И. Правоотношения по социальному обеспечению в СССР. - М., 1986. – С.38

G. B.Chelnokovaning fikricha, ijtimoiy ta'minotning bir qator mezonlari mavjud:

- birinchi mezon - moliyalashtirish manbai. Bugungi kunda ijtimoiy ta'minotni moliyalashtirish byudjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan amalga oshiriladi;

- ikkinchi mezon - bu ta'minotga tegishli shaxslar.

Ijtimoiy ta'minot jamiyat hisobidan shakllanib, barcha fuqarolar uchun tegishli emasligi davlat tomonidan qonun bilan belgilangan. Ushbu qoida ma'lum bir toifadagi fuqarolar uchun, bular: bolalar; farzandlari bor oilalar; urush va mehnat faxriylari; mehnatga layoqatsiz (nogironlik, qarilik); homilador ayollar; boquvchisini yo'qotgan shaxslar; ishsiz fuqarolar...

- uchinchi mezon – sharoitga ko'ra, ijtimoiy ta'minot amalga oshirilishi.

Ijtimoiy ta'minot yuqorida ko'rsatilgan toifadagi kishilarga davlat tomonidan qonunda belgilangan tartibda faqatgina muayyan bir holatlar (o'lim, farzand tugilishi, nogironlik, ma'lum bir yoshga etishi va boshqalar)da amalga oshirilishi belgilangan<sup>7</sup>.

Jumladan, ijtimoiy ta'minot tushunchasiga ko'pgina ta'riflar mavjud, keling, shular haqida to'xtalib o'tsak. Iqtisodiy kategoriya sifatida ijtimoiy ta'minotga quyidagicha ta'rif berilgan: fuqorolarni moddiy ta'minlash va ularga xizmat ko'rsatish uchun milliy daromadning bir qismi hisobidan pul mablag'lari ijtimoiy fondlarni shakllantiradigan va ulardan foydalanadigan taqsimlash munosabatlar tizimiga ijtimoiy ta'minot deyiladi.<sup>8</sup>

Ijtimoiy ish ensiklopediyasida P. Nelson Reyd ijtimoiy ta'minotga quyidagicha ta'rif beradi: "Ijtimoiy ta'minot eng yaxshi g'oya, eng yaxshi g'oya esa, fuqarolarning farovonligi uchun ish bilan ta'minlash, muhtojlik va ijtimoiy risklarning oldini olish va shaxsiy xizmatlarga baho berishda iqtisodiy barqarorlikka erishishdir. Ijtimoiy ta'minot g'oyasi insoniylik jamiyatiga asoslangan holda ishlab chiqilib va taqdim etish orqali boshqarilib borilishi va oxiriga yetkazilishi lozim. Ijtimoiy ta'minot termini deganda - jamoaviy ijtimoiy muammolarning oldini olish va ularni hal etish sohasida faoliyat yurituvchi tashkilotlar tushuniladi.<sup>9</sup>

Ta'minot turlari bo'yicha aholini ijtimoiy ta'minlashning davlat tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-pensiya tizimi;

---

<sup>7</sup> Челнокова, Г. Б. Социальное законодательство, направленное на защиту от бедности в России. – М.: Проспект, 2009. – 104 с.

<sup>8</sup> Vahobov A.V, Malikov T.S. Moliya. Darslik. –T.: Noshir. 2011. 449-bet

<sup>9</sup> Vaxabov A.V. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish: Darslik. - T.: Iqtisod-Moliya. 2018. - 9- bet

- ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiyalar tizimi;
- ijtimoiy xizmatlar tizimi (ijtimoiy xizmatlar);
- ijtimoiy tibbiy yordam va davolash tizimi;
- ijtimoiy yordam tizimi; ijtimoiy nafaqalar va imtiyozlar tizimi.

Ijtimoiy ta'minot davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash, davlat ijtimoiy sug'urtasi nafaqalarini tayinlash va to'lash, shu hisobdan turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (bepul sanatoriy va kurortga yo'llanmalar berish, bepul davolash va boshqalar) yo'li bilan amalga oshiriladi.<sup>10</sup>

Bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy ta'minot - keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo'lgan va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi. Ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'i hisoblanadi.

Ijtimoiy ta'minot mustaqil huquq sohasi sifatida birinchi marta 1966-yilda Pragada bo'lib o'tgan xalqaro simpoziumda ko'tarilgan va muhokama qilingan. Chexiyalik huquqshunos olimlar J.Kloushek, K.Pins, I. Tomes. va V.Vergainer o'z ma'ruzalarida Ijtimoiy ta'minot tizimi va huquqiy soha sifatidagi o'ziga xos xususiyatlarga e'tibor qaratdilar, ijtimoiy xavfsizlik bo'yicha munosabatlar va ularni tartibga solish yo'llari haqida fikr yuritib, ijtimoiy ta'minot huquqi mustaqil huquq sohasi degan xulosaga keldilar. Sovet ittifoqida xizmat ko'rsatgan fan arbobi professor V.S.Andreyev tomonidan ijtimoiy ta'minot qonunchiligining asoschisi sifatida ijtimoiy ta'minot huquqini mustaqil huquq sohasiga aylantirdi. U ittifoqda mamlakatimizda birinchi marta ushbu huquq sohasining predmeti va uslubi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi, uning normalari tizimini asoslab berdi, ijtimoiy ta'minot tamoyillarini shakllantirdi<sup>11</sup>.

Shu o'rinda O'zbekiston SSRda ijtimoiy ta'minot tizimining huquqiy asoslariga to'xtalib o'tsak. O'zbekiston SSRda ijtimoiy ta'minot huquqi manbalari quyidagilardan iborat:

a) 1936-yilgi SSSR Konstitutsiyasi SSSRning asosiy qonuni bo'lib, 1936-yil 5-dekabrda Sovetlarning VIII Butunittifoq favqulodda s'ezdi tomonidan qabul qilingan va 1977-yilgacha (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan) amal qiladi<sup>12</sup>.

10 Tursunov Y. Ijtimoiy ta'minot huquqi.-T.: o'qituvchi. 2013, 4-5-betlar

11 Право социального обеспечения. Общая часть: учебник / коллектив авторов ; под ред. М.О. Буяновой. — Москва : КНОРУС, 2021. 18-бет

12 <https://www.disserscat.com/content/sozdanie-konstitutsii-sssr-1936-goda>

b) SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1944-yil 8-iyuldagi “Homilador ayollarga hamda ko‘p bolali va yolg‘iz onalarga davlat nafaqasini kuchaytirish to‘g‘risida”, “Qahramon ona” faxriy unvonini belgilash va “Onalik shuhrati” ordeni hamda “Onalik medali”ni ta‘sis etish to‘g‘risida” chiqargan farmoni.<sup>13</sup>

v) SSSRning 1956-yil 14-iyuldagi 1480-1-sonli “SSSR fuqarolarini pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonuni. Qonun 61 moddadan iborat bo‘lib, 1956-yil 1-oktabrdan kuchga kirgan.<sup>14</sup>

g) SSSRning 1964-yil 15-iyuldagi “Kolxoz a‘zolarining pensiyasi va nafaqalari to‘g‘risida”gi qonuni.<sup>15</sup>

c) 1978-yil 19-apreldagi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi 41-moddasi.

d) SSSRning 1990-yil 15-maydagi 1480-1-sonli “SSSR fuqarolarini pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonuni,<sup>16</sup> bu qonunlar tufayli pensiya oluvchilarning soni ko‘payib, doirasi kengaydi, sarflanadigan mablag‘lar hajmi birmuncha o‘ydi.

Bu qonunlarga vaqt o‘tishi bilan yangi-yangi qo‘shimchalar qo‘shilib, o‘zgartirishlar kiritib borildi, mukammallashtirildi.

Shu bilan birgalikda Xalq Komissarlar Sovetining 1942-yil 6-maydagi, SSSR Oliy Soveti prezidiyuning 1967-yil 26-noyabrdagi, SSSR Ministrlar sovetining 1967-yil 6-martdagi, 1967-yil 10-noyabrdagi, 1970-yil 14-maydagi, 1970-yil 16-sentabrdagi, Oliy Sovetning 1977-yil 7-oktabrdagi, 1981-yil 23-fevraldagi, 1984-yil 6-yanvardagi, 26-iyundagi, 21-dekabrdagi farmon va qarorlarida pensiya, maishiy xizmat, sanatoriyalarda davolanish, maxsus harakat vositalari bilan ta‘minlash, turar joy, soliqlar, tibbiy xizmatga doir imtiyozlar va yengilliklar o‘z ifodasini topgan.<sup>17</sup>

- 1936-yilgi SSSR Konstitutsiyasining 120-moddasida ijtimoiy ta‘minot tizimi quyidagicha bayon qilingan: SSSR fuqarolari qariganda, shuningdek, kasallik va mehnat qobiliyatini yo‘qotganda moddiy yordam olish huquqiga ega. Bu huquq ishchilar va xizmatchilarni davlat hisobidan ijtimoiy sug‘urtalashni keng rivojlantirish, mehnatkashlarga bepul tibbiy xizmat ko‘rsatish, ishchilar foydalanishi uchun keng kurortlar tarmog‘ini tashkil etish bilan ta‘minlanadi.<sup>18</sup>

1937-yilgi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasining 119,120,121-moddalari ijtimoiy ta‘minot tizimiga bag‘ishlanadi. Jumladan, Konstitutsiyaning 121-

13 75 mehru shafqat yillari. – T.: Adolat, 1994. – 16-bet.

14 <https://normativ.kontur.ru/document?moduleId=1&documentId=58270>

1575 mehru shafqat yillari. – T.: Adolat, 1994. – B. 17-bet.

16 <https://base.garant.ru/6335790/>

17 75 mehru shafqat yillari. – T.: Adolat, 1994. – B. 17-bet.

18 <https://www.hist.msu.ru/ER/Etext/cnst1936.htm>

moddasida “...ona va bola manfaatlarini davlat tomonidan himoya qilish, ayollarga homiladorlik va bolalar parvarishi davrida ta’til berish, tug‘ruqxonalar, bolalar bog‘chalari bilan ta’minlanish nazarda tutilgan.<sup>19</sup>

1951-yil 27-yanvarda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti prezidiumining “Bolalar boshpanasizligi va qarovsizligini bartaraf etish to‘g‘risida”gi 13-sonli qarori qabul qilingan. Mazkur qaror natijasida respublikaning turli hududlarida qarovsiz va boshpanasiz bolalarni bolalar uylariga joylashtirish choralari kuchaytirishga e’tibor qaratilgan.

O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1963-yil 31-iyundagi “Bolalar uylari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 424-sonli qaroriga asosan respublikadagi bolalar uylarining faoliyatida bir qator o‘zgarishlar amalga oshirilgan. Jumladan, 1959-yildan 1965-yilgacha respublikadagi mavjud bolalar uylarining soni 83 tadan 63 taga qisqartirilgan. Bu qisqartirish asosan bolalar uylarini bir-biriga qo‘shish hisobiga amalga oshirilgan<sup>20</sup>.

- O‘zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1971-yil 4-iyundagi “O‘zbekiston SSR Ijtimoiy ta’minot vazirligi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 252-son qarori.

- 1971-yil 17-avgustda O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “Kolxozlarning doimiy maktabgacha tarbiya muassasalari to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan. 1971-1975-yillarda respublikada maktabgacha tarbiya muassasalarining soni besh mingdan oshgan, ularda yarim milliondan ziyod bolalar tarbiyalangan. Bu miqdor respublikadagi maktabgacha yoshdagi bolalarning 18,4 foizini tashkil etgan<sup>21</sup>.

- 1978-yilgi O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasining 41-moddasida ijtimoiy ta’minot tizimi quyidagicha bayon qilingan: O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari qariganda, kasal bo‘lib qolganda, mehnat qobiliyatini to‘liq yoki qisman yo‘qotganda, shuningdek boquvchisini yo‘qotganda moddiy ta’minot olish huquqiga ega.

Bu huquq ishchilar, xizmatchilar va kolxozchilarning ijtimoiy sug‘urtasi, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqalari bilan kafolatlanadi; davlat va kolxozlar hisobidan yoshi, nogironligi va boquvchisini yo‘qotganligi uchun pensiyalarni to‘lash; mehnat qobiliyatini qisman yo‘qotgan fuqarolarni ishga

---

19 O‘zbekiston SSR 1937-yilgi Konstitutsiyasi.-T.: 1938, 20-bet. <https://shosh.uz/wp-content/uploads/2016/12/Konstitutsiya-Uzbekskoy-SSR-1937-g..pdf>

20 M. F. Xujanova. O‘zbekistonda bolalar uylarining shakllanishi va faoliyati (1925-1991 yy.) Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi Avtoreferati. Qarshi – 2023. 13-bet

21I. R. Tishabayeva. 1946-1991-yillarda O‘zbekiston maktabgacha tarbiya muassasalari tarixi (Andijon, Namangan, Farg‘ona oblastlari misolida). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Andijon – 2023 15-bet

joylashtirish; keksa fuqarolar va nogironlarga g'amxo'rlik qilish; ijtimoiy ta'minotning boshqa shakllari.<sup>22</sup>

- O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1983-yil 10- fevraldagi 79-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston SSR Xalq deputatlari viloyat Kengashi ijroiya qo'mitasining ijtimoiy ta'minot bo'limi to'g'risidagi nizom.

- O'zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1983-yil 9- sentyabrdagi 523-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston SSR Xalq deputatlari tuman, shahar, Kengashi ijroiya qo'mitasining ijtimoiy ta'minot bo'limi to'g'risidagi nizom.

- 1987-yil 26-iyunda KPSS Markaziy Qo'mitasi va SSSR Ministrlar Sovetining "Ota-ona qaramog'isiz qolgan yetim bolalarni moddiy ta'minoti va o'quv-tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash to'g'risida"gi 300-sonli qarori qabul qilingan. Unga ko'ra, o'quv-tarbiya ishlarining samaradorligini oshirish uchun 1987-yilning 1-sentabridan boshlab 1-8-sinflardagi tarbiyalanuvchilar sonini o'quv darslarida 25 nafardan hamda 9-11-sinflardagi tarbiyalanuvchilarni 20 nafardan oshirmaslik belgilangan.<sup>23</sup>

Insoniyat tarixiy taraqqiyoti shundan dalolat beradiki, zo'rlik bilan, bosqinchilik bilan yaratilgan har qanday mustamlakachi saltanat ertami-kechmi tanazzulga yuz tutadi. Bu jarayonga esa bir qator obyektiv va subyektiv omillar sabab bo'ladi. Ikkinchi jahon urushining yakunlari va XX asrning 50-60-yillarida SSRda ijtimoiy hayot tanazzuli aholi dunyoqarashidagi turg'unlik, qashshoqlikni kuchaytirdi.

Sobiq ittifoq yagona xo'jalik kompleksi, unda hamma respublikalar va xalqlar teng huquqqa ega deb e'lon qilingan va uni o'z Konstitutsiyasida yozib qo'ygan bo'lsa-da, amalda, hayotiy jarayonlarda mutlaqo boshqa qonun-qoidalar amal qilar edi. Jumladan, markazdagi ishlab chiqarish korxonalari, tashkilot va idoralardagi xodimlar bilan O'zbekistondagi xodimlarning ish haqlari bir-biridan keskin farq qilar, bu kamsitishlarga hech kim parvo qilmas edi. Vaholanki, ittifoq tomonidan O'zbekiston SSRga nomigagina ijtimoiy ta'minot tizimi yaratilib berilgan edi.

Yuqoridagi kabi bir qator qonun va qonun osti hujjatlarning qabul qilinishi Ittifoq va O'zbekiston SSR ijtimoiy ta'minot tizimiga to'liq amal qilayotganday ko'rinar edi, xolos.

---

<sup>22</sup>[https://nrm.uz/contentf?doc=3910.18\\_konstituciya\\_\(osnovnoy\\_zakon\)\\_respubliki\\_uzbekistan\\_\(prinyata\\_19\\_04\\_1978\\_g\\_na\\_vneocherednoy\\_shestoy\\_sessii\\_vs\\_ruz\\_devyatogo\\_sozyva\)](https://nrm.uz/contentf?doc=3910.18_konstituciya_(osnovnoy_zakon)_respubliki_uzbekistan_(prinyata_19_04_1978_g_na_vneocherednoy_shestoy_sessii_vs_ruz_devyatogo_sozyva))

<sup>23</sup> M. F. Xujanova. O'zbekistonda bolalar uylarining shakllanishi va faoliyati (1925-1991 yy.) Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (phd) dissertatsiyasi avtoreferati. Qarshi – 2023. 14-15-betlar

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, keng ma’noda ijtimoiy ta’minot deganda davlat va jamoat tashkilotlari orqali ijtimoiy himoyaga muhtoj insonning farovon yashashi va daromadlarni qayta taqsimlash orqali ijtimoiy tenglikni ta’minlaydigan tizim tushuniladi. Shunday ekan, ijtimoiy ta’minot tizimining eng muhim vazifasi, albatta, aholi uchun munosib turmush darajasini ta’minlash bo‘lib u quyidagi muhim vazifalarni o‘z ichiga oladi:

Birinchidan, nogironlarga ijtimoiy yordam ko‘rsatish, mehnatga layoqatli odamlarni ijtimoiy sug‘urta qilish imkoniyatlari bilan ta’minlash, muhtojlarni ijtimoiy xizmatlar orqali qo‘llab-quvvatlash.

Ikkinchi muhim vazifa daromadlarni qayta taqsimlash vazifasi deb atash mumkin. Ijtimoiy ta’minotning uchinchi asosiy vazifasi – iqtisodiyotni barqarorlashtirish vazifasidir.

Ijtimoiy ta’minotning amalga oshirilishida qonuniylikka amal qilish, kamsitishga yo‘l qo‘ymaslik, insonparvarlik, huquqiy tamoyillarga so‘zsiz amal qilish talab qilinadi. Bu tamoyillarga amal qilmaslik inson huquqlarining poymol etilishi sifatida baholanadi. Bu hol, yani inson huquqlarining poymol etilishi sovet ittifoqi davrida yuz berdi.

Ittifoqning zo‘ravon hokimiyati o‘z yolg‘onlari asiri bo‘lganligi uchun soxtakorlikka ehtiyoj sezadi. O‘tmishni, bugunni, kelajakni va statistikani qalbakilashtiradi. U inson huquqlariga va ijtimoiy ta’minotga muhtoj qatlamni himoya qilishni nomigagina amalga oshirar edi. Ijtimoiy ta’minot bo‘yicha bir qator qonunlar va qonun osti hujjatlar qabul qilinganiga qaramay, fuqarolar bu qonunlardan to‘laqonli foydalana olmadilar. Bu esa inson huquqlari va ularning qadr-qimmatini yerga urush edi, xolos.

**TARIX****YANGI O‘ZBEKISTON MA’NAVIY  
TARAQQIYOTINING POYDEVORI****UO‘K 821.10****Sanjarbek  
DAVLETOV****Tarix fanlari doktori,  
professor.**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida mamlakatda ma’naviy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan. Unda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamon talablari asosida takomillashtirish uchun yaratilgan zarur shart-sharoitlar haqida so‘z yuritilgan.

**Аннотация:** В данной статье анализируются реформы, реализуемые в духовно-образовательной сфере на новом этапе развития Узбекистана. В ней говорится о необходимых условиях, созданных для совершенствования духовно-просветительской работы исходя из требований времени.

**Annotation:** This article analyzes the reforms being implemented in the spiritual and educational sphere at the new stage of development of Uzbekistan. It talks about the necessary conditions created for the improvement of spiritual and educational work based on the requirements of the times.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, ma’naviyat, mafkura, strategiya, islohot, kitobxonlik, yoshlar.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, духовность, идеология, стратегия, реформа, чтение, молодежь.

**The keywords:** New Uzbekistan, spirituality, ideology, strategy, reform, reading, youth.

O‘zbekistonda taraqqiyotning yangi bosqichida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar yuz bermoqda. Mamlakatimizda “Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari” shiori ostida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o‘zgarmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning shiddatli islohotchilik siyosati nafaqat O‘zbekistonni milliy yuksalish bosqichiga olib chiqdi, balki Markaziy Osiyoda yangicha munosabatlar shakllanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi [3].



Ma'lumki, yangi O'zbekistonni jahon maydonida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama obod va farovon mamlakatga aylantirish borasidagi sa'y-harakatlarda iqtisodiy omil bilan birga ma'naviy omillar ham muhim o'rin tutadi. Davlatimiz rahbari "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobida: "Biz uchun ma'naviyat - insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma'naviyat - jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha kuchli bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo'ladi"- deya ta'kidlaydi [1, B. 249].

Kitobning beshinchi bo'limi "Ma'naviy taraqqiyot" masalasiga bag'ishlangan. Unda "Ma'naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbollar", "Yangi ma'naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar", "Ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi", "Yangi O'zbekiston va ma'naviy yangilanish", "Ma'rifatli jamiyat sari", "Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi" mavzularida mavjud voqelik chuqur tahlil qilingani holda bu boradagi eng ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Prezidentimiz "Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekistonni barpo etishda ana shu ikkita mustahkam ustunga, ya'ni, bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyotga hamda ajdodlarimizning boy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyatga tayanamiz" – deya ta'kidlaydi [1, B. 249].

Ma'naviy-ma'rifiy islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad – hozirgi jahon miqyosida taraqqiyot sur'atlari shiddatli tus olgan, o'ta ziddiyatli va murakkab zamonda yurtimizda tinchlik va barqarorlikni asrash, xalqimizning farovonligini ta'minlash, mamlakatning kelajagi bo'lgan yoshlarimizni milliy qadriyatlarimiz asosida yurtga daxldorlik va ma'suliyat, fidoyilik va yaratuvchanlik ruhida tarbiyalashdir. Shu bois ham so'nggi yillarda ma'naviyat va ma'rifat masalasiga davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida katta e'tibor qaratilmoqda.

Qisqa davrda mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish maqsadida bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan 13 ta normativ-huquqiy hujjat va konseptual hujjat tayyorlandi. Xususan, O'zbekiston Prezidentining 1 ta farmoni, 4 ta qarori, 1 ta farmoyishi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 3 ta qarori, 4 ta farmoyishi qabul qilindi. Shu asosda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tizimlilik va uzluksizligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi [3].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PQ-3907-son** qarorida yosh avlod ongiga vatanga sodiqlik va uning taqdiri uchun daxldorlik hissini singdirishga e’tibor berish, ularni yot g‘oyalar ta’siridan himoya qilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, diniy bag‘rikenglik va totuvlik ruhida tarbiyalash bugungi kun zaruriyati ekanligi asoslab berildi [4].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviyat va ijodni qo‘llab-quvvatlash maqsadli jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida”gi **PQ-5039-son** qarorida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘p millatli xalqimiz o‘rtasida hamjihatlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash, milliy qadriyat, an’ana va urf-odatlarini keng targ‘ib qilish, badiiy ijod va kitobxonlik madaniyatini faol qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan vazifalar belgilangan [5].

Sohada mavjud muammolarni hal etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlarning samarasi va ta’sirchanligini oshirish, ko‘lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi **PQ-5040-son** qarori qabul qilindi. Unda ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning quyidagi ustuvor yo‘nalishlari belgilandi:

- “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

- oila, ta’lim tashkilotlari va mahallalarda ma’naviy tarbiyaning uzviylikini ta’minlash;

- targ‘ibot-tashviqot va tarbiya yo‘nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo‘yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

- el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug‘-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas’uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholining Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanish madaniyatini oshirish, g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

- madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-ahloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

- geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish [6, B. 2].

Yuqoridagi muhim hujjatlar asosida O'zbekistonning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi bugungi taraqqiyoti hamda istiqbolini belgilaydigan strategik tamoyillar, amaliy faoliyat dasturlarini yaratish, ularni amalga oshirish uchun zaruriy asoslar yaratilmoqda. Bular quyidagilarda namoyon bo'ladi:

**Birinchi**dan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi raisi ekanligi belgilab qo'yildi va bu ayni tizimda eng asosiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishining yaqqol natijasi bo'ldi.

**Ikkinchi**dan, mamlakatimiz miqyosida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ko'lami va miqyosini kengaytirish, uning yangi va zamonaviy tizimini shakllantirish, ushbu tizimda faoliyat ko'rsatayotgan soha xodimlari mehnatiga haq to'lashning barqaror tizimini yo'lga qo'yish, muassasa va tashkilotlar ishini muvofiqlashtirish hamda samaradorlikni oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar belgilab olindi.

**Uchinchi**dan, jamiyatning barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan ichki tahdidlar - el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, oilaviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasiga e'tiborsizlik kabi holatlarga barham berishga qaratilgan kompleks tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etilmoqda.

**To'rtinchi**dan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzurida Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etildi.

**Beshinchi**dan, 2021–2022-o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim tizimi ta'lim yo'nalishlari o'quv rejalariga bakalavriat bosqichida "Ma'naviyatshunoslik", magistratura bosqichida "Kasbiy ma'naviyat" fanlari kiritildi, "PRmenejer" mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlanishini yo'lga qo'yish belgilab berildi.

**Oltinchi**dan, ma'naviy-ma'rifiy va ijtimoiy-siyosiy mavzularda dolzarb maqolalar, jamoatchilik vakillarining ilg'or fikrlari, shuningdek, mafkuraviy jarayonlar tahlili, sohaga oid yangiliklarni to'plash, tayyorlash va tarqatish maqsadida "oyina.uz" elektron portali faoliyat boshladi.

**Yettinchi**dan, ta'lim muassasalarida madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha mutaxassis, har bir umumta'lim muassasasida ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi joriy etildi.

**Sakkizinchidan**, hududlarda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash, aholi, chunonchi, yoshlar ongi va qalbida ma'naviy fazilatlarni yuksaltirish, oila va mahallalarda hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida barcha tuman va shaharlarda Ma'naviyat va ma'rifat maskanlari tashkil etilmoqda.

**To'qqizinchidan**, milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar yo'nalishida ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi doirasida maqsadli fundamental, amaliy va innovatsion loyihalarni shakllantirish hamda belgilangan tartibda moliyalashtirish tartibi joriy qilindi [7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi F-4789-sonli farmoyishi ma'naviy tarbiya sohasida davr talablariga mos o'zgarishlarni ro'yobga chiqarishda muhim qadam bo'ldi. Hozirgi kunda 1677 ta matbaa korxonasi, 118 ta nashriyot davlat ro'yxatiga olingan bo'lib, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 14 ta viloyat axborot-kutubxona hamda tuman-shaharlardagi ta'lim muassasalarida 200 ga yaqin axborot resurs markazlari ish olib borayotgani, kitob savdosi xizmatini ko'rsatishda zamonaviy yondashuvlarni amaliyotga tatbiq qilinayotgani soha rivojidan dalolat beradi [8, B.937].

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son Farmoni bilan "O'zbekiston - 2030" strategiyasi qabul qilindi [9]. Strategiyada 5 ta ustuvor yo'nalish bo'yicha kelgusi yetti yilda amalga oshiriladigan 100 ta muhim maqsad o'z aksini topdi. Strategiyaning "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish" yo'nalishi doirasida ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va madaniyat sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha islohotlarni ko'zda tutadigan muhim vazifalar belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoni bilan "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi doirasida 2024-yilga mo'ljallangan yo'nalishlar kesimidagi amaliy tadbirlar rejasi hamda 2024-yilda yo'nalishlar kesimida ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxati tasdiqlandi [10].

Unda jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash maqsadini amalga oshirish yuzasidan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish belgilandi:

Mafkuraviy xurujlarga qarshi milliy g'oya asosida birgalikda kurashish hamda buyuk ajdodlarimizning boy ilmiy-ma'naviy merosini keng targ'ib qilish

maqsadida yurtimizdan yetishib chiqqan allomalarning asarlari tarjimasini amalga oshirish, ular asosida risolalar yaratish;

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish bo‘yicha yangi yondashuvlarni joriy qilish;

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlashda sotsiologik tadqiqotlar rolini oshirish;

O‘zbek xalqining milliy qadriyatlari va ma’naviy merosini asrab-avaylash, keng ommalashtirish hamda rivojlantirish;

Xorijiy mamlakatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘zbek tili o‘qituvchilarining masofaviy shaklda malakasini oshirish, ularga uslubiy yordam berish tizimini yo‘lga qo‘yish;

Yoshlar orasida kitobxonlikni targ‘ib qilish.

Darhaqiqat, davlat dasturida belgilangan ushbu vazifalarning amalga oshirilishi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasida belgilangan asosiy maqsadlardan biri - mamlakatimizning ma’naviy taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishda o‘z hissasini qo‘shadi, albatta.

Zero, bugungi kunda dunyoda globallashtirish jarayonlari insoniyat uchun beqiyos yangi imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolarni ham keltirib chiqarayotganiga befarq qarab bo‘lmaydi. Chunki ayni shu global miqyosli jarayonlarda milliy o‘zlik va ma’naviy qadriyatlarga qarshi tahdid va xatarlar tobora kuchayib bormoqda. Ayni chog‘da, faqat o‘zini o‘ylash, hayotga, oilaga yengil qarash, iste’molchilik kayfiyati turli yo‘llar bilan odamlar, ayniqsa, yoshlar ongiga ustamonlik bilan singdirilayotgani ham sir emas [11].

Bunday murakkab vaziyat ma’naviy-ma’rifiy ishlarni zamon talablari asosida takomillashtirishni taqozo etmoqda. Prezidentimiz raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni o‘tkazilgan Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida Davlatimiz rahbari: “Tarixdan ma’lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari – uyg‘oq qalbli ziyolilar, shoir va adiblar, san’at namoyandalari, ma’naviyat va ma’rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g‘arb ilm-fani yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur”, – deya ta’kidladi [2].

Bu borada madaniy-ma’rifiy sohadagi ishlarda hokimlarning mas’uliyati oshirilib, tuman va shaharlarda Ma’naviyat va ma’rifat maskanlari ishga

tushiriladi. Hududlardagi 4 ta sektorga qo‘shimcha ravishda ma‘naviyat sektori tashkil etilib, ular joylardagi Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashlarining ishchi tuzilmasi sifatida faoliyat ko‘rsatadigan bo‘ldi [12]. Beshinchi sektor hududdagi ta‘lim idoralari, jamoat va ijodiy tashkilotlar, huquqni muhofaza qilish organlari, ziyolilar, ijodkorlar, sportchilar, san‘atkorlar, diniy soha vakillari - jamiyatning turli qatlamlari boshini ezgu maqsad yo‘lida birlashtiradi. Sektorga tashkilot va korxonalarining mas‘ul rahbarlari, ziyolilar biriktirilib, hududlarning ijtimoiy-ma‘naviy xaritasi yaratiladi.

Xulosa shuki, bugun yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo‘lidan borayotgan mamlakatimizda ma‘naviyat va ma‘rifat masalasi juda muhim ahamiyatga egadir. Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashining 2021-yil 19-yanvarda ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish bo‘yicha o‘tkazilgan yig‘ilishida uning asosiy faoliyat yo‘nalishlari, vazifalari belgilab berildi. Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat kengashi raisi Prezident ekanligi belgilab qo‘yildi. Bu o‘zgarish ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni davlatimiz siyosatida yanada yuksak o‘ringa ko‘tarishda yangi qadam bo‘ldi.

Yurtimizda “Ma‘naviyat sektori”ga asos solinishi yangi ma‘naviy makon barpo etish g‘oyasini amalga oshirish yo‘lidagi yana bir qadam bo‘ldi. Zero, globallashuv sharoitida umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sodiq avlodni tarbiyalash, millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglikni targ‘ib etishda “Ma‘naviyat sektori”ining oldida juda katta mas‘uliyat turibdi.

Davlatimiz rahbari ta‘kidlanganidek, “ma‘naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak”. Zero, kuchli davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishni maqsad qilgan ekanmiz, kuchli ma‘naviyatgina uning muhim poydevori bo‘la oladi. Bunda ma‘naviyatning kuchi insonlarda ma‘naviy-ruhiy ehtiyojni shakllantirib, aniq maqsadlar yo‘lida faol harakatga chorlaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022.
2. Prezident: Ma‘naviyat boshqa sohalardan oldinda yurishi, yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi kerak. 22.12.2023. // [www.president.uz](http://www.president.uz)
3. Minhojiddin Mirzo. Ma‘naviy taraqqiyot hayotimizga yangicha ruh va mazmun bag‘ishlaydi // “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2023-yil 27-iyul, 148-son
4. Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi, 15.08.2018 y., 07/18/3907/1706-son

5. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5039/0242-son
6. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 26.03.2021 y., 07/21/5040/0243-son
7. Choriyev R. Ma'naviy - ma'rifiy yuksalish strategiyasi // [www.uzbekistan.org.ua](http://www.uzbekistan.org.ua)
8. Raximov S., Ruziev A. Yangilanayotgan O'zbekistonda ma'naviy-ma'rifiy ishlarning takomillashuvi // Academic research in educational sciences. Volume 2, Issue 4, 2021. -B. 935-941.
9. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023 y., 06/23/158/0694-son
10. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.02.2024 y., 06/24/37/0146-son
11. Saidov A. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi: iqtisodiyot va ma'naviyat uyg'unligi yo'lida // Milliy tiklanish gazetasi, 2022-yil 20-aprel, №14.
12. Xushvaqtova M. Hududlarda ma'naviyat sektorlari tashkil etiladi. 29.12.2023. // [www.parliament.gov.uz](http://www.parliament.gov.uz)



**FILOLOGIYA****MAXTUMQULI SHE'RIYATI TARJIMASINING BUXORO NASHRI****UO'K 40.450**

**Sayyora  
SAMANDAROVA**  
Filologiya fanlari  
nomzodi, dotsent.



**Umid  
BEKMUHAMMAD**

Tarix fanlari bo'yicha  
falsafa doktori

**Annotatsiya:** Maqolada Maxtumquli she'rlarini mohirlik bilan tarjima qilgan Muhammad Azim nashrining boshqa tarjimalardan farqli tomonlari yoritib berilgan.

**Аннотация:** В статье освещаются различные аспекты издания Мухаммада Азима, мастерски переведшего стихи Мактумкули, по сравнению с другими переводами.

**Annotation:** The article highlights the different aspects of Muhammad Azim's edition, which skillfully translated Makhtumquli's poems, compared to other translations.

**Kalit so'zlar:** turkman, o'zbek, she'riyat, didaktika, xalqona ohang, tarjima asar.

**Ключевые слова:** Туркмен, узбек, поэзия, дидактика, народная мелодия, переводное произведение.

**Key words:** Turkmen, Uzbek, poetry, didactics, folk melody, translated work.

Maxtumquli nafaqat turkman yoki turkiy xalqlarning, balki chinakam adabiyot muxlisi bo'lgan barcha xalqlarning sevimli shoiri. Shoir ijodidagi asosiy ruhiyat esa faqat didaktik ruhdagi ma'naviy-ahloqiy satrlardangina iborat bo'lmay, umuminsoniy kamolotga yo'g'rilgan dunyoviy tafakkur hosilalari hisoblanadi.

Aynan shu bois ham Maxtumquli insoniyat shoiri, asarlari esa jahon tamadduniga xos yuksak adabiy merosdir.

Maxtumquli faqat Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida tahsil olib, o'zbek xalqi, xorazmliklar orasida yashab ijod qilgani tufayligina emas, avvalo insoniylik qalbi, xalqona ruhi bilan ham xalqimizning sevimli shoiri darajasiga erishgan va hamisha shunday bo'lib qolaveradi. Shu tufayli ham faqat adabiyotga oid tadbirlardagina emas, o'zbek xalqining to'yi, biror bir yig'ini bo'lsa ham misol sifatida Maxtumqulining dono, umuminsoniy satrlaridan foydalaniladi.

Ma'lumki, shu paytgacha Jumaniyoz Sharipov, Jumaniyoz Jabborov, Muzaffar Ahmedov, Mirzo Kenjabek singari ijodkorlar tomonidan Maxtumquli asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingan va ularning o'z muxlislari bor.



Ammo, millati turkman bo'lgani, qolaversa Buxoro viloyatida tug'ilib, o'zbek xalqi orasida voyaga yetgani, ya'ni har ikkala turkiy tilni mukammal bilishi, hatto shevalar orasidagi farqni chuqur anglay olishi, o'zi ham shoir bo'lgani bois Muhammad Azim-Azimboy Qalandarov tomonidan qilingan tarjimalar nashr etilganidan o'zbek xalqi, Maxtumquli muxlislari tomonidan iliq qarshi olindi.



Buxoro shahridagi “Durdona” nashriyotida, 2022-yilda “Ul mehribonim keldi” nomi bilan chop etilgan tarjima nashr, o'zining mukammalligi bois respublikamizdagi yetuk olimlar, ijodkorlar tomonidan e'tirof etildi.

Tarjima nashrga so'zboshi yozgan akademik, Baxtiyor Nazarov hamda professor G'ayrat Murodovlar ta'kidlaganidek,

“Maxtumquli asarlarini to'g'ri tarjima qilish uchun turkman tilini bilishning o'zigina yetarli emas. Buning sababi shundaki, Maxtumquli yashab ijod qilgan davrda yagona turkman adabiy tili shakllanmagan edi. Shunga qaramay, Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan barcha turkiyzabon ijodkorlar uchun yigirmanchi asrgacha Hazrat Alisher Navoiy ijodi umumturkiy adabiy til vazifasini bajargan. Bunday xususiyatni biz Maxtumquli ijodiyoti misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Faqat sovet davriga kelib shu hududda yashovchi turkiylar tilida jiddiy tafovutlar paydo bo'ldi. Ular o'tmish adabiyoti hamda bir-birlarining tillaridan uzoqlasha boshladilar.

O'n oltinchi-o'n to'qqizinchi asrlarda ijod qilgan turkman shoirlari, shu jumladan Maxtumquli yagona adabiy til me'yorlari mavjud bo'lmaganidan, asosan o'z sheva va lahjalaridagi lug'aviy birliklardan ham foydalanganlar. Bunday birliklar, tabiiyki, hammaga ham tushunarli bo'lavermagan. Bunday jihatni bugungi zamon tarjimoni e'tiborga olishi kerak bo'ladi.

Muhammad Azim shoir asarlarini o'zbekchalashtirish jarayonida ulardagi sheva so'zlarini to'g'ri va aniq tarjima qilish maqsadida internet va yozma

manbalarni qunt bilan o‘rganishga harakat qilgan. Shu bilan birga, turkman tili va uning shevalari bo‘yicha mutaxassislar fikri va qarashlarini hisobga olgan” ( 1).

Tarjima nashrga nafaqat olimlar, balki Maxtumqulining izdoshlari bo‘lmish shoirlar ham katta baho berishdi. Xususan, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi Shoira Shams bu haqda shunday yozadi:

“Tarjimon Azimjon Qalandarov she‘rning turkman tilidagi ruhiyati, hissiy ifodasini o‘ldirmay, so‘ldirmay o‘zbek kitobxoniga yetkazishga intilgan va tom ma‘noda buning uddasidan chiqqan.

Foniydan boqiyga ko‘ch-ho ko‘ch bo‘lsa,

Termulibon, boqa-boqa ketarsan.

Ajal domin sunib, ich-ho ich bo‘lsa,

Jon achchig‘in cheka-cheka ketarsan.

Shoir Maxtumqulining ushbu satrlari o‘z tilida qanday ta‘sirchan bo‘lsa, o‘zbek tilida ham shunday ta‘sirchanligini yo‘qotmagan. Inson umrining so‘nggi lahzalarida o‘tgan umrga qayta nazar tashlab, savobu gunohlar so‘rog‘ida jon achchig‘ini chekmoq bayoni shunchalar ta‘sirlik, bu she‘rni o‘zbek tilida yozilganiga ishongisi keladi odamning.

Maxtumquli she‘rlaridagi keskir fikrlar, donish nasihatlar tarjimon tomonidan asl mohiyati buzilmagan holda berishga harakat qilingan. Aslida bu har bir tarjimonning maqsadidir.

Asl shoirlarning millati bo‘lmaydi. Uni hamma millat o‘ziniki biladi. Bunda, albatta, tarjimonlarning mehnati samarasi bor.

Shoir she‘rlarining yaxshi tarjimasida esa she‘r hayoti umrboqiyiligini ham belgilaydi. Yaxshi tarjima o‘lmas asarga aylanadi. Tarjimon iste‘dodi-umrboqiylik san‘ati, desak mubolag‘a bo‘lmaydi”( 2).

Ana shu singari olimu ijodkorlarning Azimboy Qalandarov tarjimasiga bergan yuqori baholari, asosiysi esa adabiyot muxlislarining “Ul mehribonim keldi” nashrini sevib mutoalla qilayotgani tarjimonning yuksak mahoratidan darak beradi. Shundan kelib chiqib, Muhammad Azim-Azimboy Qalandarovning Buxoroda nashr ettirgan tarjima kitobi o‘zbek noshirligi, tarjimashunosligidagi katta yutuqlardan biri sifatida qabul qilinishiga ishonchimiz komil.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.B.Nazarov, G‘.Murodov, “Maxtumquli abadiyati”, “Durdona “ nashriyoti, Buxoro-2022 yil.

2. Shoira Shams , “Umrboqiylik san‘ati” ( “Ul mehribonim keldi” nashriga yozilgan so‘zboshi”) “Durdona” nashriyoti, Buxoro-2022 yil.

**FILOLOGIYA****“JALOLIDDIN MANGUBERDI” DRAMASI QO‘LYOZMALARINING  
MATNIY-QIYOSIY TADQIQI****UO‘K 40.450****Javlon JOVLIYEV****Filologiya fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shoir va dramaturg Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasi qo‘lyozmalarining matniy-qiyosiy tadqiqi borasida olib borilgan tahliliy ishlar haqida soz boradi.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается аналитическая работа по текст-сопоставительному изучению рукописей драмы «Джалолитдин Мангуберди» поэта и драматурга Максуда Шайхзода.

**Annotation:** This article discusses the analytical work on the text-comparative study of the manuscripts of the drama "Jaloliddin Manguberdi" by the poet and playwright Maqsud Shaykhzoda.

**Kalit so‘zlar:** Maqsud Shayxzoda, Jaloliddin Manguberdi, qo‘lyozmalar, matn, taqqoslar, drama, tarix

**Ключевые слова:** Максуд Шайхзода, Джалолитдин Мангуберди, рукописи, текст, сравнения, драма, история

**Key words:** Maqsud Shaykhzoda, Jaloliddin Manguberdi, manuscripts, text, comparisons, drama, history

Maqsud Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” dramasini yozishi tarixiy zarurat edi. Ikkinchi jahon urishi avj olgan va millionlab odamlar urushda halok bo‘layotgan, xalq orasida vahima, qo‘rquv, umidsizlik va hukumatga nisbatan ishonchsizlik uchqunlari o‘rlayotgan bir paytda xalqlarni qahramonlikka, kurashuvchanlikka, jasorat va mardlikka undaydigan, kuchli tarixiy tomoshaga ehtiyoj bor edi va bunda millatning ite’dodlari shoirlarining ijodi asosiy o‘rinda turardi.

“1941-yil 23-iyun kuni VKP(b) MQ Siyosiy byurosi partiya va sovet organlarini urush sharoitiga moslab qayta qurish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Partiya va sovet hukumatining harbiy holat to‘g‘risida, harbiy xizmatga majbur bo‘lgan kishilarni qizil armiyaga safarbar etish to‘g‘risida, qurol-aslaha ishlab chiqarish bo‘yicha safarbarlik rejasini joriy etish to‘g‘risida qarorlari qabul qilindi. SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP(b) MQ 29-iyunda mamlakat hayotini urush talablariga moslab qayta qurish”[<https://staff.tiame.uz>] mamlakatni tebratib yuboradi. Hamma urush va uning oqibatlaridan qo‘rqqa boshlaydi. Bunday paytda sovet propagandasi juda yaxshi ishlaydi va qator ilg‘or

loyihalarni ishga tushiradi. Xalqlarning azaldan erksevarligi, insoniyligi va dushmanga qarshi kurashish azal qonida borligi qo‘l keladi. Gap o‘sha qonni qo‘zg‘ashda, ajodlarni “tiriltirish”da edi.



Tarixiy zarurat, markaz rahbarlarining xalqni oldinga, kurashga boshlash, jangchilarga kuch, mehnatkashgalarga esa sabr va kelajakka umid beruvchi asar yozish topshirishi natijasida o‘zbek teatr san‘atiga o‘sha yillarda bir qator tarixiy mavzudagi asarlar yaraladi, ularning ko‘pchiligini she‘riyati orqali allaqachon tanilgan iste‘dodli shoirlar bajaradi. O‘sha yillarda “Qahrim” she‘rlar to‘plami, Sulton Jo‘raning “Pulemyotchi ovozi”, “Nayzamiz” she‘rlari fashizm kirdikorlarini fosh etib, g‘alaba qozonishga ishonchni kuylab,

xalqning jangovar ruhini ko‘tardi”. Bularning ichida eng katta ta’sirga ega bo‘lgani, shubhasiz, teatr va uning asosi bo‘lmish dramatik asarlar ekanligini hukumat yaxshi anglardi. Chunki jangovar dramatik asarlarni markaziy sahnalardan tashqari, qishloq va chekka ovullarga gastrol safarlarga chiqarish orqali, xalqni jipslikka va yoshlarni esa kurashuvchanlikka chaqirish katta samara berardi. Shayxzoda o‘sha yillarda yozuvchi va shoirlarning vazifasini keyinchalik “Toshkentnoma” dostonida Hamid Olimjon tilidan shunday o‘ziga xos obrazli qilib beradi:

“Kel, birodar she‘rimizga  
Kiygizaylik biz ham shinel!  
Qurbon-ku ko‘p bo‘lur, yo Shayx,  
Pirovardi biz yengamiz” [5]

Bu ishlarga o‘sha paytda davlat rahbari, O‘zbekiston Kommunistik partiyasi Markaziy Qo‘mitasining birinchi kotibi Usmon Yusupovning (1937-1950) shaxsan o‘zi bosh-qosh bo‘ladi. Shu o‘rinda, afsuski bir narsani ta’kidlab o‘tishga majburmiz, bu davr, ya’ni Usmon Yusupovning 1937-1950 yillarda O‘zbekiston Kompartiyasi (bolsheviklar) Markaziy Qo‘mitasining birinchi kotibi bo‘lgan yillarda Markazdan turib qonli ishlar amalga oshirilgan vaqtga to‘g‘ri keldi – millat o‘zining katta shaxslaridan, istedodlaridan, davlatning ishongan tog‘laridan ayrildi. 1937-1939 yillarda "millatchilar" va "separatchilar"ga qarshi ommaviy qatag‘onlar avj oldirildi. Bu davr SSSR NKVD ning 30.07.1937-yildagi 00447-son [<https://ru.wikipedia.org/wiki/>] buyrug‘i bilan tuzilgan maxsus uchlikka qo‘shilish va Stalin qatag‘onlarida faol ishlagan payt hisoblanadi. Ammo og‘ir va murakkab davr bo‘lishiga qaramay, urush yillarida birinchi rahbarning adabiyot va san’atga, xususan, Maqsud Shayxzodaga ko‘rsatgan katta xizmati, qilgan g‘amxo‘rlilari alohida e’tiborga loyiq. Bu fikrlarga ustoz akademik Naim Karimovning quyidagi fikrlari dalil bo‘la oladi: “Usmon Yusupov Shayxzoda yoza boshlagan asarning tezroq yakunlanishi uchun uni O‘zbekistonning xushmanzara maskanlaridan biri – Farg‘ona viloyatidagi jamoa xo‘jaliklaridan biriga qarashli boqqa yubordi. “Boshqa ishlar bilan xayolingni bo‘lma. Xalq va armiya sendan Jaloliddin to‘g‘risidagi asarni intizorlik bilan kutmoqda. Vodilga borib, uni tezroq tugallab qayt!” [4, 24]. Albatta, urush va uning oqibatlaridan qiynalayotgan ijodkor va uning oilasi uchun bu katta yordam bo‘ladi va Shayxzoda yarim yilga yaqin vaqt mobaynida oilasi bilan Vodilda yashab ijod qiladi.

“Jaloddin Marguberdi” dramasi uchun Shayxzoda qator tarixiy manbalar o‘rganadi va ularni tahlil qiladi. Qizig‘i, ularning ko‘pchiligi shu paytgacha o‘zbek adabiy jamoatchiligiga tanish bo‘lmay, Shayxzoda bu kitoblarni Bokudan keltirgandi. Bundan tashqari, Navoiy ijodi bilan yaxshi tanishligi, qo‘lyozma va toshbosma kitoblari bilan ishlash malakasiga ega ekanligi, qator tillarni bilishi drama uchun manba to‘plashga ancha qo‘l keladi. Bugungi kunda O‘z FA Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyida “Shayxzoda kutubxonasi”da saqlanayotgan kitoblar ham bunga misol bo‘la oladi. Bu kitoblar orasida Jaloliddin Marguberdiga bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘lgan kitoblar ham bor. “Hassos shoir Maqsud Shayxzoda arxivi fondida salmoqli o‘rin tutadi, chunki unda o‘zbek adabiyotining ravnaqiga munosib hissa qo‘sha olgan so‘z san’atkorining jo‘shqin poeziyasi, falsafiy fikrlar bilan yo‘g‘rilgan ilmiy-tanqidiy asarlari, o‘tkir publitsistikasi, yuksak darajadagi poetik tarjimalari, kuchli dramaturgiyasi, har xil adabiy uchrashuvlardagi otashin nutqlari, gazeta va kitob sahifalarining bo‘sh joylaridagi qaydlari, mohir pedagogligi va shoirning ijtimoiy hayotini aynan aks ettiruvchi kundalik daftarlaridan iborat sakkiz yuzdan ortiq dasxat asarlari jamlangan. Bulardan tashqari Shayxzoda arxivida uning 931 ta

kitobdan tashkil topgan shaxsiy kutubxonasi ham saqlanmoqda”.[6] Mazkur kitoblarning ko‘pi bugun yo‘qolgan bo‘lsa-da, ularning orasida ozar tilida chop etilgan eski qo‘lyozmalar va qator nodir kitoblar bo‘lgani ma‘lum. Shahobuddin Muhammad Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni” va Alouddin Atomalik Juvayniyning “Tarixi jahongushoyi Juvayniy” kabi asarlari shular jumlasidandir. Shoir kutubxonasi haqida uzoq yillar muzeyda faoliyat yuritgan olim va yozuvchi Temur To‘raboev shunday fikrlarni bildiradi: “Badiiy olam, estetik did, dunyoqarash va bilim doirasi (ayniqsa, ijod laboratoriyasi) ma‘lum ma‘noda kishining kutubxonasida ham namoyon bo‘ladi. Chinakam ijodkor hech qachon “kutubxona” barpo etish uchun kitob yig‘maydi. Lekin shunday kitoblar bo‘ladiki, ijodkor o‘zini u kitobdan ayri tasavvur eta olmaydi. Bunday kitoblarning to‘planaverishi natijasida o‘ziga xos bir kutubxona bunyod bo‘lganini ijodkor o‘zi ham sezmay qoladi. Shunday ekan, bu kutubxona, albatta, ijodkor ijod laboratoriyasining muhim bir tomonini o‘zida ifodalaydi. Chunki har bir ijodkor ijod davrining aksariyat qismini o‘z kutubxonasida (asarning tug‘ilish jarayoni bundan mustasno) o‘tkazadi”.[6] Bu o‘rinda Jaloliddin Manguberdining nomi borasida ham turli xil qarashlar yuradi. Uning “Mangburni”, “Mingxol”, “Mankburni” kabi talqinlari uchraydi. Akademik Naim Karimovning ta‘kidlashicha, Shayxzoda Shahobuddin Muhammad Nasaviyning “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni” asaridagi Mangburni nomini “Manguberdi” deya tarjima qilgan.[2, 121]

Jaloliddin Manguberdining qahramonligi shubhasiz har qanday asarni boyitishga qodir manba. Yuqorida biz keltirgan ikki asardan tashqari, Yoqut Hamaviyning Rashididdin Fazlullohning “Jome‘ut-tavorix” (“Umumiy tarix”), ibn al-Asirning “Al-komil fit-tarix” (“Mukammal tarix”), Ziyoy Bunyodovning “Anushtagin Xorazmshohlar davlati”, Nuriddin Zaydariyning “Nafsat al-Masdur”, Juzjoniyning “Tabaqati Nosiriy”, Yoqut Hamaviyning “Mo‘jam al-buldan”, Yosin al-Umariyning “Al-asar al-Jaloliyya”, Mirzo Ulug‘bekning “To‘rt ulus tarixi”, Abulg‘ozixonning “Shajarai tarokima” kabi tarixiy manbalarda Sulton Jaloliddin Manguberdi haqida ko‘plab tarixiy ma‘lumotlar uchraydi.

Jaloliddin Manguberdi haqida Nasaviy shunday yozadi: “Jaloliddin qorachadan kelgan, o‘rta bo‘yli, turk lafzli odam edi. Fors tilini ham yaxshi bilardi. Uning botirligiga kelganda shuni aytish kerakki, sulton arslonlar orasidagi eng kuchli sher edi. Bir so‘zli, kek saqlamaydigan, ochiq ko‘ngil, to‘g‘ri odam edi. U jiddiy shaxs edi. Hech qachon kulmasdi. Juda nari borsa jilmayib qo‘yardi. U adolatsizliklarni yomon ko‘rardi. Jaloliddin o‘ta qat‘iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan favqulodda mard va botir sarkarda edi”[8].

Bugungi kungacha “Jaloliddin Manguberdi” dramasi haqida qator maqolalar, ilmiy ishlar yozilgan, ammo mavjud tadqiqotlarda qo‘lyozma va ilk nusxalar bilan ishlamaganlik qator chalkashliklarga sabab bo‘lgan. Bugun biz

bildirayotgan fikrlar asarning ilk nusxalariga tayanadi va ularni tadqiq qiladi, tasniflaydi.

Afsuski, “Jaloliddin Manguberdi” dramasi qo‘lyozmalari yo‘qotilgan va bugungi kungacha dramaning 1944 yilda mashinkalangan to‘rt varianti saqlanib qolgan. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat Adabiyot muzeyining “O‘zbekiston yozuvchilari arxivi” fondida saqlanayotgan Shayxzoda qo‘lyozmalari ichida “Maqsud Shayxzodaning dramatik asarlari va kinossenariylaridan parchalar” bo‘limida ajratilgan va ular quyidagicha taqdim qilish mumkin.

Birinchi manba – «Jaloliddin Manguberdi» dramasi parcha hisoblanib, u “Qizil O‘zbekiston” gazetasining 1943-yil 7-noyabrdagi sonidan qirqib olingan va saqlangan.

Mazkur gazetada dramadan parcha bosilgan, uning ayrim ko‘rinishlari o‘sha yili yozib tugallangan bo‘lish ehtimoli katta. Gazetaning aynan asar bosilgan qismi yirtib olingan va buklangan holda qolgan. Hozirda o‘sha buklangan qismlarida kesilishlar hosil bo‘lgan. O‘sha gazeta bo‘lagiga “7/XI. 1943.Maqsud” deya Shayxzoda o‘z dasxatini eski o‘zbek yozuvida qizil ruchkada yozib qoldirgan.

Gazetada dramaning uchinchi pardasi berilgan. Parcha tepasida gazeta muharririning qisqacha izohi ham bo‘lib, quyida sharhni o‘z holicha keltiramiz:

“Shoir Shayxzoda xalqimizning o‘tmishdagi ulug‘ vatanparvar sardori Jaloliddin Manguberdi va sheriklarining qonli jahongir Chingizxonga qarshi olib borgan mardona kurashlarini tasvirlab, yaqinda bir drama yozib tugatdi. Biz bugun hurmatli o‘quvchilarimizni ana shu dramaning 3-nci pardasi bilan tanishtiramiz”[4].

Ikkinchi manba – “Jaloliddin Manguberdi”ning 1944-yilda mashinkalangan nusxasi. Bu nusxada muallifning tuzatishlari bor[1]. Ammo hujjat ancha eskirgan, yirtilgan va ustida turli dog‘lar bor. Varaqlar soni va ketma-ketligida ham turli almashishlar bor.

Uchinchi manba – “Jaloliddin Manguberdi” dramasi Shayxzoda vafotidan so‘ng 1968-yilda Mirzoabduullo Xo‘jaev tomonidan ko‘chirilgan nusxasi. Asarning oxirgi betlari negadir yo‘qolgan. Asar muqovasiga Mirzoabduullo Xo‘jaev tomonidan ko‘chirilgan, deya yozib qo‘yilgan.

To‘rtinchi manba – “Jaloliddin Manguberdi”ning 1944-yilda mashinkada ko‘chirilgan nusxasi. Bu nusxaning 11, 12, 15, 25, 51, 52- betlari yo‘qolgan.

Beshinchi manba - tadqiqotimiz davomida topilgan nusxa bo‘lib, rejissyor Hamid Qahramon uy arxividan topilgan. 1944-yilda mashinkada ko‘chirilgan, nusxaning sarlavhasida mashinkada yozilgan “To‘rt pardali tarixiy fojia” so‘zidagi to‘rt so‘zi o‘chirilib “Besh pardali tarixiy fojia” deya tuzatilgan va bu

tuztish muallif dasxatiga juda yaqin. Hamid Qahramonning aytishicha, bu qo‘lyozma unga Maqsud Shayxzodaning turmush o‘rtog‘i Sakina xonum tomonidan berilgan va u keyinchalik Maqsud Shayxzodaning 80 yilligiga bag‘ishlab “Jaloliddin Manguberdi” dramasi yozgan.

Oltinchi manba – 1987-yilda “Yoshlik” jurnalining ikki sonida, №6 va №7-sonlarida ikki bo‘lib bosilgan nusxa. O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning (o‘sha paytda Hamza nomidagi Davlat mukofoti laureati deb yozilgan) “Vatanparvar yigit fojiasi” nomli so‘z boshici bilan o‘quvchilarga taqdim etilgan [7]. Dramadan so‘ng filologiya fanlari nomzodi, shayxzodashunos olim Muxsin Zokirovning so‘ng so‘zi ham berilgan.

Yettinchi manba – 1988-yilda Maqsud Shayxzodaning sakson yilligi munosabati bilan chop etilgan “Dunyo boqiy” kitobiga kirgan dramaning to‘liq nusxasidir. Filologiya fanlari nomzodi, Shayxzodaning fidoyi shogirdi Muxsin Zokirov tomonidan to‘plangan va nashr qilingan bu kitobda “Jaloliddin Manguberdi” dramasi bilan birga shoirning sara she‘rlari, “Toshkentnoma”, “Oqsaqol” dostonlari ham kiritilgan. Kitob so‘ngida dramaga oid izohlar ham havola qilingan, sharhlar Muxsin Zokirovga tegishli.

Asar 1945-yilning yanvariga kelibgina rejissyor Mannon Uyg‘ur tomonidan sahnaga qo‘yilgan. Bu jarayonlarni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan va sahna asarida obraz yaratgan aktrisa O‘zbekiston xalq artisti So‘ra Eshonto‘raeva o‘z xotiralarida buni eslab o‘tgani aytiladi: “Og‘a (atoqli rejissyor Mannon Uyg‘urni shunday atashgan – Akademik Naim Karimov izohi) shoir Maqsud Shayxzodaning o‘zbek xalqi tarixidan qahramonlik tragediyasini yozganligi haqida Farg‘onadan xushxabar keltirdi. Vodil qishlog‘idagi Usmon Yusupov qurdirgan ijodkorlar bog‘ida Uyg‘ur, Oybek, Usmon akalar qatnashuvida shu asar o‘qilib, asosan ma‘qullanganini aytdi. Biz shu asarni intiqlik bilan kuta boshladik. Chunki she‘riy drama hamma vaqt ham tomoshabop, ham artistlar mahorati uchun bir maktab bo‘lishini “Hamlet”, “Rustam”, “Muqanna” singari sahna asarlaridan bilardik”[2.125] Ijodkorlar bu asarni katta qiziqish bilan kutib olgan va sahna asari ustida repetitsiyani boshlab yuborishgan va ularning ko‘pida shaxsan Shayxzodaning o‘zi ham qatnashgan, birinchi marta asarni o‘zi ozarbayjoncha ohang ila purviqor, ohangdor ovozda o‘qib bergan[2,126].

O‘sha paytdagi Hamza teatirini gigantlar teatri desa bo‘lardi, ularning dili yangi va kuchli asarlarga tashna bo‘lib, har qanday asarni his va tahlil qilishga usta edilar, ular “Jaloliddin Manguberdi” dramasi “qahramonlik va muhabbat, lirika va romantika, jo‘shqin hissiyot va ehtirosiga ko‘proq moyil bo‘lgan hamzachilar uchun bu tarixiy drama yangi kashfiyot” deya qarshilashgani ayni haqiqatdir. Shuning uchun ham ulug‘ mehnat yo‘lida jon berib kurashayotgan ishchilar ham o‘zlaridan sira kam mehnat qilmay, ming mashaqqat bilan spektakl sahnalashtirayotganlarga yuksak hurmat ko‘rsatishgan, ularning har bir sahna asari katta qiziqish bilan, entikish bilan ko‘rilgan. “O‘sha paytga xalqning teatr



tomoshasiga mehri bo‘lakcha edi. Teatrlarga bilet topish mushkul bo‘lardi. Kassa tuynukchasi oldida “Biletlar sotib bo‘lingan” degan so‘zlarni o‘qish mumkin edi. Ayrim paytlarda Hamza nomli teatrining yozgi binosida skameykalarda o‘rin qolmaganligidan spektakllarni devor ustiga, daraxtlar boshiga chiqib, yon tomonida tik turib tomosha qilayotgan odamlarni ko‘p ko‘rganman[3, 333].

Maqsud Shayxzoda doim o‘z asarlarining sahnaga ko‘chishida so‘zlarning buzilmasligi, g‘oyaning saqlanishi, gaplarning “yo‘qolmasligi” va so‘zlarning to‘g‘ri ishlatilishi, aktyorlar talaffuziga jiddiy qaragan, har qanday olib tashlash yoki o‘zgartirishlarga, u jumla yoki bitta so‘z bo‘ladimi, katta bahs va munozaralarga sabab bo‘lgan. Dramaturgning rejissyor Mannon Uyg‘ur va bastakor Manas Leviev bilan tortishib qolgan paytlari ham bo‘lgan.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi. O‘zbekiston yozuvchilari arxivi. Shayxzoda fondi. 193- raqamli hujjat.

2. Karimov N. “Maqsud Shayxzoda”. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2009. – B. 125.

3. Qo‘shjonov M. “Diydor”. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2004. – B. 313

4. “Qizil O‘zbekiston” gazetasi// 1943 y., 7- noyabr

5. “Toshkentnoma” ( lirik doston dan parchalar). “Qizil O‘zbekiston”, 1958-yil, 28- fevral.

6. Temur To‘raboev. Maqsud Shayxzoda ijod laboratoriyasini o‘rganishda shoir kutubxonasining roli. Adabiy meros. Ilmiy asarlar to‘plami. Institut tahrir va nashriyot bo‘limi. Toshkent – 1980-yil.

7. “Yoshlik” jurnali. 1987- yil, 6 №.

8. Umarov M. “Mannon Uyg‘ur estetikasi”. – T.: Musiqa, 2007. – 163.

9. Shahobuddin M. N. “Siyrat as-sulton Jaloliddin Mangburni”/Matyaqubov tarjimasini/. – T.: “O‘zbekiston”, 2006. – 372.

**FILOLOGIYA****TALABALIK DAVRIDAGI SHIJOAT****UO‘K 40.450****Muhiddin Rahim****“Jahon adabiyoti”  
jurnali bo‘lim mudiri**

***Annotatsiya:** Maqolada 21 yoshida vafot etgan noyob iqtidorli talaba Bahodir Sodiqning hayoti, faoliyati tahlil etiladi. Talabalik davrida ham o‘zbek ijodkorlari orasida o‘ziga xos obro‘-e‘tibor topgan adabiyotshunosning ibratga loyiq ilmi xotiralar asosida tadqiq qilingan.*

***Аннотация:** В статье анализируется жизнь и деятельность талантливого студента Бахадюра Садики, скончавшегося в 21 год.*

***Annotation:** The article analyzes the life and work of the exceptionally talented student Bahadir Sadiq, who died at the age of 21. The exemplary science of the literary critic, who gained a special reputation among Uzbek artists even during his student days, is researched on the basis of his memories.*

***Kalit so‘zlar:** ToshDU, filologiya, Xorazm, Shovot kanali, “Guliston” jurnali, kursdoshlar.*

***Ключевые слова:** ТашГУ, филология, Хорезм, канал Шават, журнал «Гулистон», сокурсники.*

***Key words:** TashSU, philology, Khorezm, Shavot channel, "Guliston" magazine, fellow students.*

Avstriyalik faylasuf shoir Rayner Mariya Rilke Gulchi va Taqdirni o‘zaro muqoyasa etib, go‘zal tashbeh yaratgan edi. Biri turfa gullarni yonma-yon qo‘yib, ajoyib guldasta yasasa, – deydi shoir, – boshqasi turfa insonlarni to‘qnashtirib, hayotni o‘zanga soladi. Taqdir 1976-yili biz – nafaqat o‘zbekistonlik, balki qirg‘izistonlik tojikistonlik bo‘lgan 26 nafar yigit-qizni ToshDUning (hozirgi O‘zMUning) mo‘jaz auditoriyasiga jamladi. Biz kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirib, jurnalistika fakulteti 1-kurs talabasi bo‘lgan edik. 26 nafar bu yigit-qizni, beshak, guldastaga qiyoslash mumkin edi. Chunki biz yosh edik, sof va pok edik...

Biz bugun bu dunyoda insondek yashab o‘tishning o‘zi katta jasorat ekanini teran anglaymiz. Biroq, o‘sha vaqtda, 17-18 yashar paytimizda faqat buyuk ishlar haqida orzu qilardik. Chunonchi, o‘zim ilk mashg‘ulotlardan oq, qani kimning chog‘i nimaga yetarkan, deb hamkurslarimga taftish nazari bilan boqqanimni tan olaman.

Hali 1-kurs tugar-tugamas ikki talaba favqulodda iste‘dodi bilan boshqalardan ajralib qoldi. Ulardan dastlabkisi Farog‘at Kamol edi. U shoira

sifatida juda tez mashhur bo‘lib ketdi. Farog‘atning she‘riy turkumlari Asqad Muxtor bosh muharrir bo‘lgan “Guliston”dek “ta‘bi nozik” jurnalda ham chop etilardi. U hatto Moskvadagi bir adabiy mashvaratga yurtimizning eng sara yosh shoir, nosir va munaqqidlari safida ham borib keldi. Vaholanki, 70-yillar o‘rtalarida milliy adabiyotimizga kirib kelgan bir-biridan iste‘dodli yosh qalamkashlar orasidan o‘z o‘rnini topish oson ish emas edi. Farog‘at biz bilan bir auditoriyada tahsil olardi-yu, ammo aslida o‘zga olamlarga mansubdek edi. Bu kayfiyat hatto domlalariga-da ko‘chgan, ular ham Farog‘atga o‘zgacha iltifot bilan munosabatda bo‘lardi.



So‘ngroq anglab yetdimki, shoirlik iste‘dodining erta gullab-yashnashi odatiy hol ekan. XIX asr mashhur fransuz shoiri Artyur Remboning 15 yoshida yozgan she‘rlari naqadar hayratlanarli! Darvoqe, u 19 yoshga kirguncha barcha o‘lmas asarlarini yaratib bo‘lgan edi. Ammo, olimlik iste‘dodi erta bo‘y

ko'rsatishi – onda-sonda uchrovchi noyob hodisa. Chunki biron bir fan sohasi, deylik, adabiyotshunoslikni egallashga 17-18 yosh kamlik qiladi. Ajabki, boshqa bir kursdoshimiz – Bahodir Sodiq barchamizni lol qoldirganicha, ana shu sohada juda barvaqt tilga tushib ketdi.

Men Bahodirning iste'dodini hali u bilan yaqindan tanishmay turib, ilk mashg'ulotlardayoq payqagan edim. Esimda, ustoz Muxtor Xudoyqulov "Jurnalistikaga kirish" fanidan saboq berardi. Domla ilk mashg'ulotda bizga "Nega jurnalistlik kasbini tanladim?" deganga o'xshash mavzuda insho yozdirdi. Keyingi mashg'ulotda esa ana shu insho yakunlarini e'lon qildi. O'shanda ustoz eng yaxshi uch-to'rt insho qatori Bahodirning yozma ishini ham tilga olgan, hatto undagi bir ta'sirchan epizodni o'qib eshittirgan ham edi. Mazkur epizodda kursdoshimizning tuman gazetasida ilk maqolasi chop etilgan paytdagi hayajonli qalb kechinmalari o'z aksini topgandi. Qo'liga gazetani olib, nafasi ichiga tiqilib, maqola qahramoni – keksa temirchi huzuriga chopib borayotgan yosh muxbir tegrasida havo... halqa yasaydi. Menga aynan shu halqa yasash tafsili juda yoqib tushgan, chunki ko'z bilan ko'rib bo'lmas jarayon ko'z bilan ko'rib bo'lar jarayonga aylangan edi-da! Men san'atkor xuddi shunday nuqtadan boshlanishini elas-elas his qilib turardim.

Bahodirda o'ziga mustahkam bir ishonch bor ediki, bu uning har bir hatti-harakatida yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Men esa o'z imkoniyatlarimga shubha bilan qarardim va shu jihatdan Bahodirning tamom aksi edim. Hozir ham 17-18 yashar bir yigit bunday mustahkam ishonchni qaerdan olgan edi ekan-a, deb hayron bo'lib yuraman. O'ziga ishongan odamning esa qadami shaxdam, so'zi keskir bo'ladi – Bahodirda olimlik iste'dodi erta bo'y ko'rsatganiga ana shu omil sababdek, nazarimda.

Bahodir halitdanoq kurashga chog'lanardi-yu, ammo hali maydon hozirlanmagan edi. U dastlab siyosiy sharhlar yozib, gazetama-gazeta qatnab yurgani yodimda. Qaysi tahririyatga bormasin, barchasida sharhlari ma'qullanar, ammo... chop etilmas edi. Nega bunday bo'lganiga hozir aqlim balodek yetadi. Axir, siyosat degani nozik soha, demak, siyosiy sharh yozishga ham barchaga yo'l ochiq emas! Ayniqsa, 17-18 yashar g'o'r bir talabaga! Ammo, Bahodir shu sohaga ixtisoslashganda ham, undan, baribir, zo'r siyosiy sharhlovchi chiqishiga aslo shubha qilmayman.

Shundan so'ng u adabiy-tanqidiy maqolalar yoza boshladi. Nazarimda, 70-yillarning ikkinchi yarmida adabiyotimizga kirib kelgan avlodni kitobxon ommaga anglatishda Bahodir yozgan taqrizlarning xizmati ozmuncha emas. Hozir bundoq eslab boqsam, uning taqrizlari, asosan, she'riy to'plamlarga bag'ishlangan ekan. Bahodirning o'sha maqolalari akademik adabiyotshunoslik qoliplariga ko'pam mos tushavermasdi. Hozir ustoz Ibrohim G'afurovdan, adabiy tanqidchilik esse uslubida bo'lishi kerak, degan fikrni ko'p eshitib yuraman. Bahodirning maqolalari, nazarimda, xuddi shu uslubda edi. U biron bir she'riy

majmua bahona nafaqat shoir qalbini anglar, balki o‘z ko‘nglini ham to‘kib solardi. Buni shoir va tanqidchining qizg‘in suhbat, goho esa hatto jo‘shqin bahsi deyish mumkin edi.

Bahodirning tahlilini ham sof aqliy tahlil deb bo‘lmasdi. Buni, nazarimda, hissiy tahlil deyilsa, ko‘proq to‘g‘ri bo‘ladi. U she‘rga, asosan, qalbi bilan yondashar va bu aksar o‘zini oqlardi. Axir, she‘rning o‘zi ko‘pincha qalb mevasiku! Xullas, Bahodirning qalamini, odatda, qalb yetaklar, aql esa zarur o‘rinlardagina ko‘makka kelardi. Ushbu holni, ehtimol, botiniy sezim – “intuitsiya” atamasi aniqroq ifolalab berar. Chamasi, Bahodir aqldan ko‘ra intuitsiyada ko‘proq kuch-quvvat yashirib yotganini g‘ayrishiuriy tarzda fahmlab yetgandi. Yana uning taqrizlarida har bir fikr aforizm – hikmatga qarab intilayotgani va bunda hech qanday chiranish ko‘zga tashlanmayotganidan lol qolardim. Bu fikrlar go‘yo uning zehnda qo‘qqis paydo bo‘lgan-u, barmoqlari esa atigi qog‘ozga bitib qo‘ygan, xolos.

Bahodirning iste‘dodi dastlab 70-yillarning ikkinchi yarmi adabiy avlodi e‘tirofiga sazovor bo‘ldi, so‘ng esa kattaroq avlod vakillari ham uni o‘z huzurlariga chorlay boshladi. Ustoz adabiyotshunos Matyoqub Qo‘shjonov, mashhur shoir Omon Matjon va boshqalar, shu yigit haqida eshitib yuraman, biror kun vaqt topib, yonimga kelsin, degani haqida ijobiy ma‘nodagi mish-mishlar oralagandi.

Odatda, odam qancha bilimga egaligini o‘zi ko‘pam bilavermaydi. Buni u boshqa bilimdon kishi bilan suhbatlashibgina aniqlashi mumkin. Bir kuni iste‘dodli shoir Muhammad Rahmon Bahodir bilan hamsuhbat bo‘lib qolgan. Ikkisi ham bir-birini tark etgisi kelmay, yarim kechagacha suhbatlashib o‘tirishgan. O‘shanda Muhammad Rahmon “Shuncha narsa bilishimdan o‘zim bexabar ekanman”, degan ekan. Bu gapni u, menimcha, o‘zini maqtash uchun emas, Bahodirni alqash uchun aytgan. Axir, “ma‘danni yer yuziga olib chiqqan konchi” Bahodir bo‘lgan-da!

Mening ham Bahodir bilan do‘stligim fikr do‘stligi edi. Biz garchi bir auditoriyada o‘qisak ham, har kuni suhbat quravermasdik. O‘n besh kundami-bir oydami bir-birimizning gurungimizni sog‘inib qolardik. Har kuni 60-70 betdan kam kitob o‘qimaymiz, deb ont ichib qo‘ygandik, chunki busiz aqliy-hissiy o‘shimizni tasavvur etolmasdik. Xullas, ikkovimiz ham o‘qish va fikrlash asnosida obdon to‘lgachgina bir-birimizga to‘kildik. So‘ngra shu kayfiyat yana qaytib kelmaguncha, o‘z-o‘zimiz bilan bo‘lib yuraverardik.

Bahodirni mumtoz adabiyot ham o‘ziga jalb eta boshladi. U bir necha oy Mashrab devonini qo‘ldan qo‘ymay o‘qib yurdi. Bahodir Mashrabning o‘zini ham, so‘zini ham Chaqmoq timsoli orqali idrok etardi. “Chaqmoq” lafzini shu ulug‘ shoirga bag‘ishlangan maqolasi sarlavhasiga ham olib chiqqan edi. Bahodirning Mashrabga qiziqishi, aslida, tasavvuf adabiyotiga ishtiyoqining

debochasi edi. Biz uning ustoz adabiyotshunos Aziz Qayumov huzuriga borib, menga Ahmad Yassaviyni mavzu qilib bering, deb murojaat etganini eshitgandik. Sir emas, Ahmad Yassaviy ijodi – turkiy tasavvuf adabiyoti sarchashmasi. Zotan, Bahodir turkiy tasavvuf adabiyotini sarchashmasidan boshlab o‘rganishga bel bog‘lagan edi. Jamiyat endigina 80-yillarga qadam qo‘yayotgan bir pallada Ahmad Yassaviy she‘riyati ta‘qiq ostida edi. Bu mavzuga qo‘l urgan odamga bir ziyon yetadi, degan hadik bor edi ko‘ngillarda. Jillaqursa, dasti daroz sho‘ro mafkurasi shunday hamlaga shay turardi. Kim biladi, balki Bahodir bu mavzudan ham hali ta‘qiq olib tashlanishini oldindan fahmlagandir. U o‘zi tug‘ilib o‘sgan yurt – Xorazmni kezib, odamlardan eski qo‘lyozmalarni to‘plab yurgani haqida xabarlar kelib turardi. Tasavvuf adabiyotiga doir kelgusi tadqiqotlari uchun shu yo‘l bilan manba to‘plaganmikan o‘shanda u?



Bahodir, men 25 yoshimda fan nomzodi, 30 yoshimda fan doktori bo‘laman, der edi. Bu gapni u ikkita dissertatsiyani allaqachon yozib, g‘aladonga qulflab qo‘ygan odamdek bamaylixotir aytardi. Bahodir bu gapni maqtanchoqlik qilib aytmasdi, chunki uning yuz ifodasi, so‘z ohangida kibrdan asar ham yo‘q edi. Ushbu iddao zamirida, boya ham tilga olganimizdek, o‘ziga bo‘lgan mustahkam ishonch turardi. Men, to‘g‘risi, uning aynan shu yoshlarda bo‘lmasa ham, shu yoshlar atrofida fan nomzodi-yu fan doktori bo‘lishiga shubha qilmasdim.

Bahodirdek serbaraka insonlar siz atrofda o‘nta tosh terib, bir yerga to‘plaguncha, shunday toshlardan butun boshli tepa yasab ulguradi.

Bahodir birdan soqol-mo‘ylov qo‘yib yubordi. Talabalar uchun bu favqulodda holat edi. Men buni o‘zimcha ikki sababga yo‘ydim. Birinchisi – Islom dini bag‘rida yaralgan tasavvuf ta‘limoti va adabiyotiga muhiblik bo‘lsa, ikkinchisi – u o‘zini endi yanada erkinroq, ozodroq his eta boshlagandi. Axir, botindagi o‘zgarishlar bir kuni zohirga ham ko‘chishi aniq-ku! Ammo Bahodir

mening xotiramda negadir avvalgi – soqol-muylovsiz qiyofasida muhrlanib qolgan, o‘sha siymo menga azizroq, qadrliroq...

1980-81-o‘quv yili boshlandi. Biz endi 5-bitiruvchi kurs talabalari edik. Bir-ikki kun o‘qidik hamki, Bahodirdan darak yo‘q. Bir kuni kechasi tushimga Bahodir kirdi. Hoynahoy, bugun darsga keladi, degan fikr o‘tdi xayolimdan uyg‘onganimga. Lekin Bahodirning o‘zi kelmadi, u haqda xabar keldi. Shum xabar, mash‘um xabar... Bahodir Shovot kanaliga cho‘kib halok bo‘libdi!

Bu xabarni eshitganda xayolimga Sirdaryo dalalarida paxta terib yurgan chog‘larimiz keldi. Bu yerdagi kanal kech kuzda sayozlashib qolar, Bahodir shimini tizzadan yuqori shimalab olib, suvni shaloplatib yugurgancha, qo‘lda baliq tutardi. Suv degani muzdek bo‘lar, biz kanalga tushishga jazm etolmasdik. Uning esa parvoyi falak, yana harakatlari... shunaqayam chaqqon ediki!.. Ta‘ziya bildirgani Xorazmga borganimizda, Shovot kanalini ham ko‘rib qaytdik. Odamni yutib yuboradigan unaqa katta kanal emas ekan. Biroq, afsuski, oyoq tomiri ilkis tortishib qolgan...

Bahodirning fojiasidan musibat chekkan faqat kursdoshlargina bo‘lmay, uni bizdan-da aziz ko‘rgan boshqa qalblar ham bor ekan. Bahodirning o‘limidan so‘ng yana bir fojia yuz berdi. Quyi kursda o‘qiydigan bir qiz o‘z joniga qasd qilib qo‘ydi. O‘sha fojiali muhabbat haqida taniqli shoir Usmon Azim “Bahodir va Malika” degan she‘r yozdi...

Shu damgacha men, o‘lim bizdan juda uzoqda, deb yurardim. Lekin ikki nogahoniy o‘lim bu xayollarimni yer bilan yakson qildi. O‘lim har qachon shundoq yonimizda yurar va o‘zi hohlagan damda ko‘ksimizga changal solar ekan. Ey Robbim, shunchalar omonatmi bu jon degani?!

Bahodir u dunyo safariga ketdi, men esa bu dunyoda qoldim. Hayot shunday qurilgan ekanki, senga ba‘zan tiriklardan ko‘ra o‘liklar kuchliroq ta‘sir ko‘rsatar ekan. Men har gal Bahodirni eslaganimda, birdan ko‘ksimda vijdon tilga kiradi. U Bahodir qiyofasiga do‘nadi-da, “Menga nasib etmagan umr sizga nasib etdi. Uni qanday yashayapsiz o‘zi, munosibmi yoki nomunosibmi?” deya tergov qilishni boshlaydi.

Siz haqingizda bir kun albatta yozaman, deb yurardim, Bahodir! Lekin uni bir xonaga biqinib, shirin-achchiq xotiralarim bilan yolg‘iz qolib, ko‘nglim to‘lib ketsa, yig‘lab-yig‘lab yozishni istagandim. Lekin bu satrlarni butunlay o‘zga sharoitda, “Jahon adabiyoti” jurnali tahririyatining kimlardir betinim kirib-chiqib turgan, telefon ham beto‘xtov jiringlab yotgan bir xonasida xayolim ming bor bo‘linib yozdim. Bundoq o‘ylab qaragam, butun umrim ana shu taxlitda o‘tibdi: parokanda...parokanda! Laxtak-laxtak umr bor-u, yaxlit, butun umr yo‘q! Ishonaman, siz bunday yashamagan bo‘lardingiz, Bahodir!

Universitetni tamomlaganimizdan 30 yildan ziyodroq vaqt o‘tib, Bahodirning eng yaqin do‘sti Farhod Ibodullaev yana kursdoshlarni birlashtirdi. Har yili bahor faslida biron bir kursdoshimiznikida diydorlashadigan bo‘ldik. Bir gal Surxondaryoda, bir gal Qoraqalpog‘istonda, yana bir gal Farg‘onada... Diydorlashuv mudom Bahodirning ruhiga Qur‘on tilovat qilish bilan boshlanadi. Uning ortidan bu dunyoni tark etgan ikki hamkursimiz–Botir Madumarov, Munavvara Mavlonovalar ruhiga ham Oллоhdan mag‘firat so‘rab, yuzimizga fотиha tortamiz. Oltmishni qoralab borayotgan kursdoshlarimga birma-bir ko‘z tashlab, ularning yuzida yashab o‘tilgan past-baland umrning chuqur izlarini ko‘raman. Hayotining gul yillari bir tuzum harobalari ustida boshqa bir tuzumni qurish davriga to‘g‘ri kelgan kursdoshlarimdan birortasining ham hayoti oson kechgan emas.

Diydor onlarida bir o‘kinch qalbimni g‘ijimlayveradi. Bizning umidlarimiz Bahodir va Farog‘at edi. Bahodirni 21 yoshida yovuz ajal oramizdan yulib ketdi. Uning iste‘dodi endigina ilk mevalar bera boshlagan edi. Farog‘at esa oila tashvishi-yu farzandlar tarbiyasi bilan andarmon bo‘lib qoldi. U ham, afsuski, o‘z iste‘dodini to‘liq yuzaga chiqarolmadi. Vaholanki, biz Bahodir va Farog‘at timsolida osmonlarni ko‘zlagan edik. Netongki, “Osmonlar aylanib, armon bo‘ldilar” (Bahodir Sodiq satri).

Taqdir biz – 26 nafar yigit-qizni bir auditoriyaga jamlagan o‘sha 1976-yilni qayta-qayta qo‘msayman. Axir, bizning safimizda xato yo‘q edi o‘shanda. Biz yosh edik, sof va pok edik. Bir dasta gul edik o‘shanda...

Bahodir Sodiqov vafotidan so‘ng uning xotirasiga bag‘ishlab she‘rlar yartildi. Shulardan biri Shovotlik shoir Otabek Raximovning quyidagi she‘ridir.

### ***Bahodir Sodiq xotirasigaga***

*Bir daryo motamlik kuyini chalar,  
Bir qishloq ohidan poklanar g‘amlar.  
Bir dunyo borliqdan, yo‘qlikka do‘nar,  
Har oqshom ichikar kiprikda namlar.*

*So‘ng vido qo‘shig‘in pichirlar Amu,  
Ruhimda qichqiriq, so‘ngsiz ohi bor.  
Bu daryo qo‘yniga adashib kirgan-  
"Bahodir Sodiq" ning o‘ychan ruhi bor.*

*U bosgan yo‘llar ham sirlarga to‘la,*



*U kirgan qalblarning xotiri gulshan.  
Ey yurak, ustozga maktublar yo‘lla,  
U tutgan qalamni o‘pib yashayman.*

*Bir asriy sog‘inchim ochmoqda aza,  
Kemtiklik gullagan kitoblarimda.  
Xursand qilsa deyman tashrif buyurib-  
Usiz o‘tgan befayz xitoblarimga.*

*Tor xona, odatiy qalam va qog‘oz,  
Armonim ichikar, mendan g‘am bezor.  
Ruhimga ruhini bog‘laganim rost,  
Dilimda, diydorga qancha izhor bor.*

*Nihoya topmaydi yakunni bilmas,  
Behudga shunchaki bo‘lmaydi nolib.  
Qo‘l cho‘zsam yetmaydi, sarhadlari keng,  
Bir kelib ketdi -u, yurakda qolib.*

*Ma‘yus termo‘lasan armoning og‘ir  
Qismat ayamadi seni Bahodir...*

Yigirma bir yoshida o‘zidan g‘oyatda boy adabiy meros qoldirib vafot etgan Bahodir Sodiqov nomi barhayotdir. Negaki uning ikkinchi barhayot umri asarlari orqali avloddan avlodga o‘tmoqda.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI NTM

# INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

9 (18)  
2024-yil, sentabr.

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	M.Eshmurodov
Mas’ul kotib:	U.Bekimmetov
Texnik muharrir:	M.Kuranbayev
Navbatchi:	M.Kuranbayev

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 10-fevral kuni №062869 raqamli guvohnoma berilgan.

Bosishga topshirish vaqti: 10:00. Topshirildi: 10:00.

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 4,125 b.t. Buyurtma №32/24.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

---

Urganch innovatsion universiteti  
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,  
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.  
Tel: (+998) 90-436-20-22